

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

IV KURS BITIRUVCHISI

IBROIMOVA MAHLIYO NAJMIDDINOVNA

**«Mopassan hikoyalarida psixologik tahlil mahorati» mavzusidagi
5120100 – Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr ilmiy
darajasini olish uchun yozgan**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2018-2019-o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari doktori, prof.

O`RAYEVA D.S.

BUXORO – 2019

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

IV KURS BITIRUVCHISI

IBROIMOVA MAHLIYO NAJMIDDINOVNANING

“Mopassan hikoyalarida psixologik tahlil mahorati”

MAVZUSIDAGI

**5120100 – Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr ilmiy
darajasini olish uchun yozgan**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2018-2019-o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari doktori, prof.

O`RAYEVA D.S.

Rasmiy hakam:

filologiya fanlari doktori, prof.

QUVVATOVA D.H.

BUXORO-2019

«Ma'qullayman» _____

«Tasdiqlayman» _____

Ilmiy rahbar: f.f.doktori,

O'zbek adabiyoti

prof. D.S.O'rayeva

**kafedrası mudiri
Sh.N.Ahmedova**

« » _____ **2018-y.**

« » _____ **2018 -y.**

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi **Ibroimova Mahliyoning «Mopassan hikoyalarida psixologik tahlil mahorati»** mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi ustida olib borishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan

TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqti	Bajarilgan ishlar haqida ilmiy rahbar xulosasi (imzo)	Talaba (imzo)
Nazariy faoliyat	1. Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to'plash, o'rganish	sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarni mavzu nuqtayi nazaridan o'rganish	oktabr		
	3. Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To'plangan materiallarni sistemalashtirish	noyabr		
BMI ustida ishlash	1. MBI rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	dekabr		
	2. I bob paragraflari ustida ishlash (yig'ilgan nazariy ma'lumotlarni ishga kiritish)	yanvar		
	3. II bob paragraflari ustida ishlash (nazariy ma'lumotlar asosida ishning amaliy qismini shakllantirish)	fevral		
	4. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	mart		
	5. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	aprel		
	6. Adabiyotlar ro'yxatini tartibga solish			

MBIni rasmiy- lashtirish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	May		
MBIni himoya qilish		Iyun		

Bitiruvchi kurs talabasi:

Ibroimova Mahliyo

Ilmiy rahbar:

Darmonoy O`rayeva

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek adabiyoti kafedrasining 1-yig`ilishi bayonnomasidan
KO`CHIRMA

26-avgust, 2018-y.

Qatnashdi: kafedraning barcha
a`zolari

K U N T A R T I B I

Malakaviy bitiruv ishlari mavzularining muhokamasi, tasdig`i hamda ilmiy rahbarlarni tayinlash.

Kafedra qaror qiladi:

4-kurs talabasi **Ibroimova Mahliyoning** malakaviy bitiruv ishi mavzusi **“Mopassan hikoyalarida psixologik tahlil mahorati”** shaklida tasdiqlansin. Bitiruvchi kurs talabasi **Ibroimova Mahliyoning** malakaviy bitiruv ishiga f.f.doktori, prof. Darmonoy O`rayeva ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig`ilish raisi :

Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi :

U.To`rayeva

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek adabiyoti kafedrasining navbatdan tashqari yig`ilishi
bayonnomasidan

KO`CHIRMA

Buxoro sh.

28-may, 2019-y.

Qatnashdi:

kafedraning barcha
a`zolari

K U N T A R T I B I

4-kurs talabasi Ibroimova Mahliyoning “Mopassan hikoyalarida psixologik tahlil mahorati” mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi muhokamasi

Kafedra qaror qiladi:

4-kurs talabasi Ibroimova Mahliyoning **“Mopassan hikoyalarida psixologik tahlil mahorati”** mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi «sinov himoyasidan o`tdi» deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.

Mazkur malakaviy bitiruv ishga taqrizchi etib filologiya fanlari doktori, professor D.H. Quvvatova tayinlansin.

Yig`ilish raisi :

Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi :

U. To`rayeva

**Filologiya fakulteti 5120100 – Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta`lim
yo`nalishi bitiruvchisi Ibroimova Mahliyoning “Mopassan hikoyalarida
psixologik tahlil mahorati” mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi**

ANNOTATSIYASI

Mazkur malakaviy bitiruv ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o`rganilishi, ilmiy-amaliy ahamiyati, maqsad va vazifalari haqida fikr yuritilgan. Malakaviy bitiruv ishning I bobi Gi de Mopassanning hikoyalarida psixologik tahlil masalasiga bag`ishlangan bo`lib, ikki fasldan iborat. “Mopassan ijodining o`rganilishi xususida” deb nomlangan birinchi faslda adibning hayoti va ijodiy faoliyati, shuningdek, Mopassan ijodining o`zbek adabiyotida o`rganilishi va tadqiq qilinishi yoritib berilgan. Ishning ikkinchi faslida esa Mopassan asarlarida romantizm va realizm masalasi tahlil qilingan. Mopassanning ko`pgina hikoyalarida realistik ruh ifodalansa-da, ba`zi asarlarida romantizm ham yaqqol sezilib turadi. Yozuvchi hikoyalarida haqiqiy hayotni tasvirlash orqali reallikni ko`rsatish yuqori o`rinda turadi. Mopassan o`z hikoyalarida yolg`onlardan chekinadi. Uning novellarida ma`naviy qashshshoq munofiq kishilar obrazining butun bir silsilasi yaratiladi. Malakaviy bitiruv ishining II bobi Mopassan hikoyalarida ruhiy holatlarning talqini va tasviriga bag`ishlangan. Har bir faslda yozuvchi hikoyalarida gavdalantirilgan obrazlarning psixologik holatlari, ruhiy kechinmalari badiiy tahlil qilinib, ikkinchi faslda Mopassanning poetik san`atlardan mohirona foydalanish uslubi yoritilgan. Ish yakunida xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati keltirilgan.

Imiy rahbar:

D.S. O`rayeva

Talaba:

M. Ibroimova

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 – Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta'lim yo`nalishi bitiruvchisi Ibroimova Mahliyoning **“Mopassan hikoyalarida psixologik tahlil mahorati”**

mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga DAK

XULOSASI

No	Belgilangan me'yorlar			
1	MBIning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: 45 betdan kam bo'lmasligi kerak)	talabga javob beradi –10 ball	talabga qisman javob beradi – 7 ball	talabdan chetga chiqish holatlari mavjud – 4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi	davlat dasturiga kirgan – 8 ball	grant loyihasi bo'yicha – 7 ball	BuxDU dasturi bo'yicha – 6 ball yoki dolzarb muammolar bo'yicha – 5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	yetarli darajada asoslangan – 5b.	yetarli asoslanmagan – 3b.	noaniq – 2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq – 7 ball	to'liq aniq emas – 5 ball	aniq emas – 3 ball
5	MBIda ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanganlik darajasi	to'la – 7 ball	qisman – 5 ball	yetarli emas – 3 ball
6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi	natija yangi – 8 ball	ilgari olingan – 6 ball	to'la ishonchli emas – 3 ball
7	MBIning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi, ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma'naviy-ma'rifiy...)	bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor – 6 ball	tavsiya qilingan – 5 ball	tavsiya yo`q – 3 ball
8	Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarini tanqidiy baholanganligi darajasi	aniq – 8 ball	to'la aniq emas – 6 ball	tanqidiy baholanmagan – 4 ball

9	Ishning ilmiy xarakteri	ilmiy tadqiqotlar asosida – 8 ball	aralash shaklidan – 5 ball	referativ xarakterdan – 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to`la foydalanilgan – 8 ball	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan – 6 ball	faqat darslik, ma`ruza matnlari, o`quv qo`llanma va ma`lumotnomalardangina foydalanilgan – 4 ball
11	Bitiruvchi taqdimotiga baho	a`lo – 10 ball	yaxshi – 7 ball	qoniqarli – 6 ball
12	Berilgan savollarga javobi	to`liq – 8 ball	o`rta – 6 ball	Qoniqarli – 4 ball
13	BMIni tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a`lo – 7 ball	yaxshi – 6 ball	qoniqarli – 5 ball
14	BMIGA qo`yilgan yakuniy ball:	Bahosi:		

Eslatma: Har bir ball bo`yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi: TDO`AU professori, filol. f. dok. B.R.Mengliyev

A`zolari: 1. D.Z.Rajabov(fakultet dekani, filol. f. dok.)

2. Sh.N.Ahmedova (o`zbek adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d.)

3. G`.Murodov (o`zbek adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.d)

4. H.Safarova (o`zbek adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.n)

5. H.Samiyeva (Buxoro shahridagi 35-son maktab o`qituvchisi)

6. M.Bozorova (BuxTI qoshidagi 1-akademik litsey o`qituvchisi)

.....-iyun, 2019-y.

MAVZU: MOPASSAN HIKOYALARIDA PSIXOLOGIK TAHLIL MAHORATI

Reja:

I BOB. MOPASSAN – MOHIR HIKOYANAVIS

- 1.1 Mopassan ijodining o`rganilishi xususida
- 1.2 Mopassan hikoyalarida realizm va romantizm

II BOB. MOPASSAN HIKOYALARIDA RUHIY HOLATLARNING TALQINI VA TASVIRI

- 2.1 Mopassan hikoyalarida ruhiy tahlil ko`rinishlari
- 2.2 Yozuvchining psixologik holatlarni aks ettirishda qo`llagan poetik vositalari (mubolag`a, sifatlash, qarshilantirish).

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

KIRISH

Mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon mamlakatlari taraqqiyotining o`ziga xos globallashuv bosqichida yashayotgan bugungi avlod o`rtasida xalqaro aloqalar, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot doirasidagi turli yaqin munosabatlar, fikr va tajriba almashinuvlari, shuningdek, badiiy ijod olamidagi adabiy ta'sir, sintez va uyg'unlashuv har qachongidan ham yuqori bosqichga ko'tarilib bormoqda. Endi har qanday hodisa butunjahon kontekstidagina o`zining tom ma'nodagi bahosini olishi mumkin. Mana shundan kelib chiqib, bugungi dunyo adabiyotshunosligida o`ziga xos o`rin tutgan, jahon aholisi kitobxonligida e'tirof topgan asarlarni o`rganish, ularni jahon so`z san'atining nodir namunalari darajasiga ko'targan badiiy xususiyatlarini aniqlash, baholash tamoyili kuchaymoqda. Bu esa, muayyan yozuvchi ijodining dunyo adabiyoti kontekstidagi o`rnini belgilash barobarida unga xos ijodiy individuallikni yoritish nuqtai nazaridan hamisha dolzarbdir.

Dunyo adabiyotshunosligida badiiy psixologizm hamma davrlarda eng muhim muammolardan biri sanalgani adabiyotning asosiy tasvir ob'ekti inson va uning hayoti ekanligidan kelib chiqadi. Insonning yashash tarzi, uni qurshagan muhit va narsalar, kiyinishi, intilishlari, hayotga munosabati va qarashlari kabi ustqurma hodisalar zamonlar o`tishi bilan o`zgarib boraveradi. Bu holat ma'lum bir davr sharoitida qalam tebratgan ijodkorning ijod psixologiyasida, u yaratgan asarlarda aks etgan ijtimoiy va milliy psixologiyaning badiiy talqinida ham namoyon bo'ladi. Ammo odamzotninggina ruhiy olami bilan bog'liq hislar, iztirob, quvonch, qayg'u, alam va hokazo singari tuyg'ular adabiyotda inson psixologiyasini teran ochib berishda azaliy o`zgarmasdir. Shuning uchun "yozuvchilik mahoratining eng muhim jihati"<sup>1</sup> bo'lmish badiiy psixologizm, ruhiy tahlil muammosini konkret olingan ijodkor asarlari misolida o`rganish hamma vaqt adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan bo'lib qolaveradi.

¹ Каххор А. Асарлар. Беш жилдлик. Бешинчи жилд. – Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б.123.

O`zbek adabiyotiga jahon ilg`or adabiyotining ta`siri XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan e`tiboran sezilarli bo`lib qoldi. Ijtimoiy-siyosiy evrilishlar zaminida tarjimachilikning, o`zaro adabiy aloqalarning taraqqiy etishi, rus adabiyoti va adabiyotshunosligi orqali bilvosita adabiy ta`sir kuchaydi. Umuman, XX asr o`zbek adiblari ijodi yangi ijtimoiy-siyosiy dunyoqarash zaminida Sharq va G`arb adabiy an`analarining, Sharq va G`arb tafakkurining murakkab sintezi sifatida maydonga keldi. XX asr o`zbek adiblari ijodi g`oyaviy-badiiy jihatlariga ta`sir ko`rsatgan ijodkorlardan biri buyuk fransuz yozuvchisi Gi de Mopassan ijodidir. Shuni inobatga olib, bu yozuvchining ijodiy biografiyasini alohida, chuqur o`rganish foydadan xoli emas. Bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligi va zaruriyati aynan shunda namoyon bo`ladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25-avgustdagi PQ-451-son “Milliy g`oya targ`iboti va ma`naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini oshirish to`g`risida”gi qarori, 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son “Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori, 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to`g`risida”gi, 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo`yicha komissiya tuzish to`g`risida”gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlar, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu bitiruv malakaviy ish muayyan darajada xizmat qiladi.

**Muammoning o`rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotida tanqidiy realizm oqimining yirik vakillaridan biri, novella janrining ustasi, mashhur fransuz yozuvchisi Gi de Mopassan (850-1893) ijodiy merosining O`zbekistonda tarqala boshlaganiga 80 yildan oshdi. Ammo XX asrning 50-yillariga qadar Mopasan ijodini, uning alohida asarlarini, hatto yozuvchining o`zbek tiliga tarjima qilingan novellalarini tahlil qilishga

bag`ishlangan birorta ilmiy ish yoki maqola o`zbek adabiyotshunosligida mavjud emas edi.

1950-yilda Mopassan tug`ilganiga yuz yil to`lishi munosabati bilan “Qizil O`zbekiston” (hozirgi “O`zbekiston ovozi”) gazetasida N.Xudsishvilining “Gi de Mopassan” nomli maqolasi o`zbek tiliga tarjima qilib bosildi. Bu maqolada iste`dodli yozuvchining hayoti, ijodi, yashagan davri haqida ma`lumot berish bilan birga, uning “Hayot” romani, “Do`ndiq” hikoyasi haqida qisqacha fikr yuritilgan edi.

XX asr 50-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab samarqandlik adabiyotshunos olim Y.Po`latov bevosita “Mopassan ijodi va uning asarlari tarjimasi muammolarini tadqiq etishga kirishdi. Uning ana shunday ishlaridan biri “Mopassan asarlarining o`zbek tiliga tarjimasi” deb nomlangan. Y.Po`latov bu maqolasini keyinchalik ayrim o`zgarishlar bilan “Tarjima san’ati” to`plamida qayta nashr ettirdi. Olim “Frazeologik oborotlarni rus tilidan o`zbek tiliga tarjima qilishning ba’zi xususiyatlari” nomli maqolasida ham Mopassan hikoyalarining tarjimasi bilan bog`liq muammolar haqida qisman so`z yuritgan edi. Jumladan, tadqiqotchi Mopassan asarlari tarjimasida frazeologizmlarni oddiy so`zlar bilan o`girish yoki tarjimasiz tashlab ketish, asar qahramonlarining holatiga muvofiq frazeologizmlarni to`qib chiqarish kabi hollarga xarakterli misollar keltirgan edi.

Y.Po`latovning 1963-yilda himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasi Mopassan ijodiy merosini mamlakatimizda o`rganish sohasida salmoqli dadil qadam bo`ldi. Bu tadqiqotning so`nggi-uchinchi bobi bevosita “Gi de Mopassan novellalari o`zbek tilida” deb nomlangan. Mazkur bob avvalida olim Mopassan novellalarini o`zbek tiliga tarjima qilinish tarixini yoritadi. Shundan so`ng dissertatsiyada Gi de Mopassan novellalari tarjimasi tahlil etiladi. Mazkur bobning muhim jihati shundaki, muallif Mopassan asarlarining ozarbayjon, qozoq, tatar, qirg`iz, qoraqalpoq kabi turkiy tillarga qilingan tarjimalarini ham tahlil doirasiga kiritadi, ayrim novellalar (“Tuan”, “Chol”, “Gado”, “Do`ndiq” kabilar)ning bir necha tarjima variantlarini o`zaro qiyoslaydi.

Y.Po`latovning “Badiiy asarda nomlar tarjimasi (1967), “Asrlarga tutash hamkorlik” (1974), “O`zbekistonda chet el adabiyotini o`rganishga doir” (1975) nomli

risolalarida ham adabiy aloqalar, tarjimashunoslikning umumiy masalalar bilan bir qatorda Mopassan novellalariga tarjimasiga oid qiziqarli va muhim fikrlar keltirilgan.

Adabiyotshunos olim Q.Rasulov “Portret yaratish san’atiga doir” nomli maqolasida buyuk san’atkorlar asarlarida kishini sehrlab qo’yadigan odamlar qiyofasi takrorlanmas qilib chizib berilishini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash maqsadida Mopassanning mashhur “Do’ndiq” hikoyasiga qayta-qayta murojaat qilgan edi.

Bu davrga kelib tadqiqotchi olim M.Xolbekov umuman fransuz-o’zbek adabiy aloqalari, jumladan, Mopassan ijodini o’rganish bilan jiddiy shug’ullana boshladi.1977-yilda olimning “Gi de Mopassanning “Azizim” romani o’zbek tilida” nomli maqolasi e’lon qilindi. Bu maqolada I.G’afurov tomonidan 1975 yilda amalga oshirilgan “Azizim” romani tarjimasi bilan bog’liq holda Mopassan ijodiy merosiga, yozuvchi uslubi, uning o’zbekcha tarjimadagi ifodasi masalalariga oid muhim fikrlar bayon etilgan.

M.Xolbekovning “Parda Tursun – fransuz adabiyotining tarjimoni” nomli maqolasida Mopassanning “Tuan”, “Mayiblar onasi”, “Sayek”, “Belom xalfaning jonivori”, “Chol”, “Suxsirlar”, “Qishloq sudida”kabi novellalari tarjimasiga oid ba’zi fikr-mulohazalar bayon etilgan.

G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti 1987-yilda buyuk fransuz yozuvchisining “Hayot”, “Azizim” romanlari va “Do’ndiq”, “Asirlar”, “Madmuzel Fifi”, “Oqsoch qiz sarguzashtlari”, “Darbadar”, “Portda”, “Alvasti”, “Rozali Pryudan” kabi novellalaridan iborat kitobini “Jahon adabiyoti durdonalari” seriyasida ko’p ming nusxada nashr ettirdi. Bu mamlakatimizda shu kunga qadar Mopassan asarlari tarjimasining eng kata nashri edi. Bu kitob M.Xolbekovning “Gi de Mopassan ijodi” nomli salmoqli maqolasi bilan ochiladi. Mazkur maqolada Mopassan ijodi yaxlit, XIX asr jahon adabiyoti fanida tahlil etilgan, yozuvchining insonning ichki dunyosini ochib beruvchi, ijtimoiy turmush qirralarini haqqoniy manzaralarda yorituvchi yangi tipdagi novellalar yaratgan, “Azizim”, “Hayot”romanlari esa Stendal, Onore de Balzak, V.Gyugo, J.Sand, Flober, E.Zolya asarlari qatoridan munosib joy olganligi ko’rsatib berilgan.

1988-yilda “O`zbekistonda tarjimachilik” nomli ilmiy to`plam nashr etilgan edi. Bu to`plamdan Z.Isomiddinovning Zumrad Orifjonovanning tarjimonlik faoliyatini yorituvchi adabiy portret xarakteridagi ishi ham o`rin olgan.

M.Xolbekov “Gi de Mopassan merosi O`zbekistonda” (tarjima va tanqid tarixidan) nomli maqolasida Mopassan asarlarining o`zbek tiliga tarjima qilinish tarixi va bunda P.Tursun, M.Hakim, Zumrad, I.G`afurov kabi tarjimonlarning mahorati, bu tarjimalarda yo`l qo`yilgan ayrim qusurlar haqida fikr yuritadi. Shunisi muhimki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda Mopassan asarlarini aslyatdan – fransuz tilidan o`zbekchaga tarjima qilish an`anasi yo`lga qo`yildi. Jumladan, Sh.Minavvarov, B.Yo`ldoshev kabi tarjimonlar sa`y-harakati bilan Mopassanning “O`lib tirilgan”, “Yolg`izlik” kabi hikoyalari bevosita fransuzchadan o`zbek tiliga tarjima qilindi.

Shuningdek, B.Ermatov XIX asr fransuz realistik novellalarining o`zbek tiliga tarjimalariga oid nomzodlik dissertatsiyasida ham Mopassan novellalarining tahliliga alohida e`tiborni qaratgan edi.

B.Ermatov 1991-yilda Samarqandda o`tkazilgan respublika anjumanida “Gi de Mopassan va o`zbek adabiyoti” degan mavzuda qiziqarli chiqish qilgan edi. Bu ma`ruza muallifi Mopassan ijodining o`zbek hikoyachiligiga ta`siri haqida so`z yuritarkan, bunday ta`sirning ijobiy tomomnlari bilan birga, ayrim tanqidchilikka moyil o`rinlarni ham keskin tanqid qiladi. Ya`ni B.Ermatov to`g`ri ta`kidlaganidek, o`tgan asrning 70-80-yillarida o`zbek adabiyotida Mopassanga ko`r-ko`rona taqlid qilish kuchayib ketdi. Natijada adabiyotimizda ishq-muhabbat, oilaviy mavzularda yozilgan xaridorgir romanlar, qissalar, hikoyalar yuzaga keldi. Bunday asarlarda muhabbatga, ishq-vafoga o`tkinchi bir his, hayvoniy bir ehtiyoj sifatida qaraladiki, bu sharqona an`analar ruhida tarbiyalangan o`zbek xalqining axloqiy aqidalariga tamomila nomuvofiqdir. Bunday taqlidchilikka qarshi kurashish adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Ko`rinadiki, o`zbek adabiyotshunosligida Mopassan ijodiy merosi, uning asarlari tarjimasi haqida bir qancha ishlar yuzaga keldi, mamlakatimizda o`ziga xos mopassanshunoslik yo`nalishi shakllandi. Lekin amalga oshirilgan bu ishlar hozirgi kunda daryodan bir tomchi bo`lib, kelgusida Mopassan ijodiy merosi o`zbek prozasi

bilan uzviy mushtarak holda hozirgi davr adabiyotshunosligi yutuqlari kontekstida yanada chuqurroq tadqiq etilishi zarur. Bu esa umuman o'zbek adabiyoti, jumladan, hozirgi o'zbek nasrining rivojiga yanada samarali ta'sir qilishiga mustahkam zamin hozirlaydi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi taniqli frantsuz adibi Gi de Mopassanning hikoyalarida psixologik tahlil mahoratini, kichik janrda badiiy psixologizmni, psixoanalitik hodisalarni o'ziga xos ifodalash mahoratini asoslashdan iborat.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:

Gi de Mopassanning o'zbek adabiyotiga kirib kelishi bilan bog'liq ijtimoiy-adabiy omillarni aniqlash;

o'zbek adabiyotshunosligida badiiy psixologizm haqida bildirilgan nazariy tushunchalarni umumlashtirish va mavzu tadqiqi jarayonida erishilgan xulosa hamda natijalar asosida uni to'ldirish;

hikoya janrida badiiy psixologizmlarni qo'llash bilan bog'liq kompozitsion hamda poetik xususiyatlarni Gi de Mopassan hikoyalari misolida ochib berish;

Gi de Mopassanning badiiy psixologizmni, xususan, ijtimoiy va milliy psixologiyani badiiy aks ettirishdagi uslubiy o'ziga xosligini dalillash;

adabiyotda inson ruhiy olamini badiiy qayta gavdalantirishning adabiy-estetik an'analar hamda individual uslublar bilan aloqasi, badiiy psixologizmning uslubiy vositalarini tanlashda aks etgan yozuvchi individualligi va badiiy mahorati kabi masalalarni yoritish. –

Malakaviy bitiruv ishining ob'ekti. Tadqiqotning ob'ekti sifatida Gi de Mopassanning hikoyalari tanlandi.

Malakaviy bitiruv ishi metodlari. Ishning maqsadidan kelib chiqib, uni yozishda tarixiy-qiyosiy, psixoanaliz metodlaridan foydalanildi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi:

– “badiiy psixologizm” tushunchasining miqyoslari yangidan kengroq belgilandi va Gi de Mopassanning badiiy psixologizmni qo'llash, psixoanalitik hodisalarni poetik tahlil qilish mahorati misollar bilan ilmiy dalillandi;

– Gi de Mopassan hikoyalarida ijtimoiy va milliy psixologiyaning voqelanishi yoritildi va adibning badiiy psixologizm borasidagi mahorati, asosan, xarakter psixologizmi o`rganildi;

– Gi de Mopassan hikoyalarida aks etgan psixologik hodisalar Yevropa adabiyotshunosligida ommalashgan psixoanaliz metodi asosida tadqiq qilindi, jumladan, badiiy asar va uning yaratuvchisi munosabatlari, badiiy adabiyotda aks etgan inson ruhiy olamiga aloqador hayotiy haqiqatlarning psixoanalitik asoslari va mubolag`a, sifatlash, qarshilantirish kabi vositalari yoritildi;

– inson ruhiyati badiiy manzaralarini yaratishda Gi de Mopassanning psixoanalitik vositalarni tanlashdagi uslubiy prinsiplari aniqlandi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur ish natijalaridan yozuvchi uslubini, badiiy adabiyotning eng muhim jihatini tashkil etadigan badiiy psixologizm masalasini yoritishga bag`ishlangan ilmiy ishlarda foydalanish mumkin.

Ishning ilmiy-nazariy xulosalari va umumlashmalaridan oliy o`quv yurtlarida qiyosiy adabiyotshunoslik, jahon xalqlari adabiyoti bo`yicha ma`ruzalar o`qish, dars mashg`ulotlari o`tkazishda, o`quv qo`llanmalari, darslik va majmualar yaratishda foydalanish mumkin.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi va hajmi. Ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan.

I BOB. MOPASSAN – MOHIR HIKOYANAVIS

1.1 Mopassan ijodining o`rganilishi xususida

Buyuk fransuz yozuvchisi Gi de Mopassan 1850-yil 5-avgustda Turvil-syur-Arkes (hozirgi Quyi Sena)dagi Miromesnil qasrida dunyoga kelgan. O`z davrida Gyustav Flober va Emil Zolyalar bilan ijodiy aloqada bo`lgan Gi de Mopassan fransuz adabiyoti sahnasida “Hayot” (1883), “Azizim” (1885), “Pyer va Jan” (1887–1888) romanlari hamda “Do`ndiq” (1880), “Loyxo`rak to`g`risida ertaklar” (1883), “Orla”(1887) singari bir-biridan sermazmun novellalari orqali fransuz adabiyotida o`z “so`zi”ga ega bo`ldi. Adib asarlarining eng muhim jihati realistik ruh bilan sug`orilganligi edi.

Mopassanning oilasi XIX asr o`rtalarida Lorendan ko`chib kelib, Quyi Senada joylashadilar. Otasi Gyustav de Mopassan 1846 yilda oliy tabaqa vakilasi hisoblanmish Lora de Puatvin bilan oila quradi. Ular nikohidan ikki o`g`il dunyoga keladi. Lora kelajakda ikkala o`g`lining hayotida o`z ijobiy ta`sirini ko`rsatgan buyuk yozuvchi Gyustav Flober bilan do`stlik rishtalarini bog`lagan edi. Lora adabiyot olamidan yaxshi xabardor ayol bo`lib, klassika, xususan, Shekspir ijodiga mehri o`zgacha edi. 1854-yilda oila Gavr yaqinidagi Blan de Grenvil-Imovil qal`asiga joylashadilar. 1856-yil Gining ukasi Erve dunyoga keladi. Onasi Lora 1860-yilda yengil hayotning ortidan quvadigan eri Gyustav bilan ajrim imzolaydi va ikkala o`g`liga yolg`iz o`zi g`amxo`rlik qiladi.

Bolaligining qolgan yillarini Etretadagi dengiz qishlog`ida qad rostlagan “Vergilar” pansionida o`tkazadi va aynan o`zi yashagan atrof-muhit sabab tabiatga muhabbat ruhida o`sadi.

Bo`lajak adib 1869-yili adabiyot yo`nalishida bakalavrlikni tamomlab, onasi hamda Floberning maslahatiga ko`ra, huquq sohasida o`qish uchun Parijga jo`nab ketadi. Ammo to`satdan boshlangan Franko-Prussiya urushi uning rejalarini tubdan o`zgarishiga sabab bo`ladi. 1870-yilda armiyaga ko`ngilli bo`lib yozilgan adib

xizmatni harbiy bo'lim ta'minotida boshlab, keyinchalik artilleriya safiga o'tadi va normand qo'shinining germanlarga qarshi harakatida qatnashadi. Urushdan keyin xizmatni tugatish uchun o'rniga odam yollab, Normandiyaning tark etadi.

Mopassan o'n yil davomida Parijda Dengiz floti va Xalq ta'limi vazirligida xizmatchi vazifasida ishlaydi. U azobli kechalarini tinimsiz adabiy izlanishlar bilan o'tkazadi. 1875-yil fevral oyida o'zining birinchi ertagi "Kesilgan qo'l"ni Jozef Prunye taxallusi ostida "Almanax" jurnalida nashr qildiradi.

Shu vaqt oralig'ida sog'lig'idan tashvishlangan adib tibbiy ko'rikdan o'tadi. Tahlil natijalari dahshatli kasallik – zaxmni ko'rsatardi. Bu kasallik adibning o'limiga qadar vujudini kemirgan.

U buyuk yozuvchi Flober rahnamoligi hamda himoyasi ostida adabiyot va jurnalistikaga kirib keladi. Ijodiy faoliyatini "Galliya", "Parij Sadosi", "Jil Bla", "Figaro" gazetalarda maqolalar e'lon qilish bilan boshlaydi. Keyinchalik bo'sh vaqtlarida romanlar va novellalar yozadi. Floberning ko'magi ostida 1879-yili birinchi kitobi "Qadimgi davrlar tarixi" ning alohida 100 sahifasini nashr qildiradi.

Mopassan Emil Zolya bilan aloqa o'rnatgan vaqtda, ya'ni 1880-yili naturalist yozuvchilar uyushmasi to'plamida o'zining ilk novellasi "Do'ndiq" bilan qatnashadi va bu asar tezda muvaffaqiyat qozonadi. Floberning fikricha, bu novella "o'lmas shoh asar" deya baholanadi. Ammo xuddi o'sha yili Floberning kutilmaganda g'oyib bo'lishi sabab yosh adib o'z taqdiri qarshisida yolg'iz qoladi.

1880-1890-yillar oralig'idagi 10 yillik adib hayotidagi eng sermahsul davr bo'ldi: bu davr mobaynida adib 6 ta roman, 300 dan ortiq novella va ko'plab sarguzasht hikoyalarni nashr qildiradi.

1881-yil adib o'zining ilk novellalar to'plamini "Telye uyi" nomi ostida nashr qildirdi va yaqin ikki yil ichida uning ikkinchi nashri ham chop etildi. 1883-yilda Mopassan 1877-yilda boshlagan "Hayot" romanini yozib tugatdi. Bu roman bir yilda 25 ming nusxada sotuvga chiqariladi. Roman to'g'risida Lev Tolstoy shunday yozadi: "Bu roman fransuz adabiyotidagi "Xo'rlanganlar" romanidan keyin ikkinchi shoh asardir".

1884-yil oktyabr oyida adib “Azizim” nomli mashhur romanini yozib tugatadi. U shungacha yaratgan barcha novellalaridagi rang-barang kuzatishlarini aynan “Azizim” romanida jamlagan. Bu asar to`g`risida Mopassanning o`zi shunday deydi: “Azizim – bu men!” 1887-1888-yillar oralig`ida yozuvchi navbatdagi “Pyer va Jan” romanini yaratadi.

Mopassan sog`ligi zaifligiga qaramay, Jazoir, Italiya, Angliya, Sitsiliya bo`ylab uzoq muddatli sayohatlar qiladi, gazetalar uchun yangidan-yangi reportajlar tayyorlaydi. Talvasali hayoti davomida vujudini sekin-asta qamrab olayotgan kasallikni unutish uchun kengliklarga ehtiyoj sezadi.

So`nggi yillar tamomila yolg`iz hayotga beriladi. U bora-bora o`zini ham jismonan, ham ruhan yomon his qilar, maslahatlar, muolajalarga qaramasdan ahvoli yengillashmasdi. Shu sababdanmi, adib eng so`nggi kuchini ham asar yozishga sarfladi. 1889-yilda “Kuch” nomli asar nashrdan chiqdi. Shu yil may oyida adib “Bizning qalb” nomli so`nggi asarini yozishga kirishadi. Kiborlar jamiyatining axloqiy masalalari aks etgan bu asar 1890-yil may va iyun oylarida “Ikki dunyo” jurnalida nashr qilindi. Oradan bir oy o`tib, 1890-yilning avgust oyida “Begona qalb” nomli asar ustida ish boshlaydi. 1891-yilda esa “Angilus” nomli yana bir asarni yozishga kirishadi. Ammo har ikki asarni ham tugata olmaydi. 31-dekabrda doktor Kazalisga yozilgan xat Mopassanning eng so`nggi vidolashuv xati bo`lib qoldi.

1891-yilda Mopassan o`zining adabiyotdagi faoliyati to`g`risida Joze Mariya de Eridiyaga shunday yozgan edi: “Men adabiyotga yashindek kirib keldim va uni momaqalldiroq singari tark etaman”.

Mopassan “Qobiliyat bu cheksiz bardosh demakdir” deb yozgan edi. Adib yaratgan asarlarning mavzulari hayotidagi kechmishlari, rang-barang tajribalar bilan chambarchas bog`liq. Mopassanning ona yurti Normandiya o`zining takrorlanmas manzarasi bilan uning asarlarida muhim o`rin tutadi (“Hayot”dagi qishloq, dengiz, shahar ko`rinishlari va uning aholisi – dehqonlar, zamindorlar yoxud kichik zodagonlar). Ammo Normandiya yozuvchi asarlarida tasvirlangan yagona joy emas, xususan, Parij ham “Azizim” romanida voqealar rivojining markazida turadi. Bundan tashqari, 1870-yildagi urush va germanlarning bosib olishi boshqa bir muhim mavzu

bo`lib, adib undan “Do`ndiq”, “Fifi xonim”, “Ikki do`st”, “Milon ota”, “Jinni” asarlarida foydalanadi. Asarlariga insonparvarlik ruhini singdirishda, asosan taqdir qurboni bo`lgan (“Hayot”, “Mitti Rok”, “Mis Are” asarlarida, xo`rlangan (“Do`ndiq”, “Fifi xonim”, “Telye uyi”da) ayollar hamda oila va farzandlar (“Pyer va Jan”, “Dalalarda”, “Bola”, “Oila”) obrazlari muhim o`rin tutadi.

Mopassan asarlarida ruhiy tushkunlik, uning ortidan muqarrar keladigan ruhiyat tanazzuli va nihoyat, o`lim tushunchalari keng talqin etiladi.

Bu bevosita yozuvchining o`z ruhiy holati va kasalligi bilan izohlansa, ajab emas. Biroq Mopassan XIX asr fransuz hayotining turfa manzaralarini shunday aniq va tiniq tasvirlaydiki, mazkur jihat uni dunyoning buyuk revlist adiblari qatorida sanashga asos beradi. Darhaqiqat, Gi de Mopassan ijodi hamon qalblarni to`lqinlantirib kelayotgan bezavol ijoddir.

Jahon adabiyotida tanqidiy realizm oqimining yirik vakillaridan biri, novella janrining ustasi, mashhur fransuz yozuvchisi Gi de Mopassan (1859-1893) ijodiy merosining O`zbekistonda tarqala boshlaganiga 80 yildan oshdi. Ammo XX asrning 50-yillariga qadar Mopassan ijodini, uning alohida asarlarini, hatto yozuvchining o`zbek tiliga tarjima qilingan novellalarini tahlil qilishga bag`ishlangan birirta ilmiy ish yoki maqola o`zbek adabiyotshunosligida mavjud emas edi. 1950-yilda Mopassan tug`ilganiga yuz yil to`lishi munosabati bilan “Qizil O`zbekiston” (hozirgi “O`zbekiston ovozi”) gazetasida N.Xudsishvilining “Gi de Mopassan” nomli maqolasi o`zbek tiliga tarjima qilib bosildi. Bu maqolada talantli yozuvchining hayoti, ijodi, yashagan davri haqida ma`lumot berish bilan birga, uning “Hayot” romani, “Do`ndiq” hikoyasi haqida qisqacha fikr yuritilgan edi.

50-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab samarqandlik adabiyotshunos olim Y.Po`latov bevosita “Mopassan ijodi va uning asarlari tarjimasi muammolarini tadqiq etishga kirishdi. Uning anashunday ishlaridan biri “Mopassan asarlarining o`zbek tiliga tarjimasi” deb nomlangan. Y.Po`latov bu maqolasini keyinchalik ayrim o`zgarishlar bilan “Tarjima san’ati” to`plamida qayta nashr ettirdi. Olim “Frazologik oborotlarni rus tilidan o`zbek tiliga tarjima qilishning ba’zi xususiyatlari” nomli maqolasida ham Mopassan hikoyalarining tarjimasi bilan bog`liq muammolar haqida

qisman soʻz yuritgan edi. Jumladan, tadqiqotchi Mopassan asarlari tarjimasida frazeologizmlarni oddiy soʻzlar bilan oʻgʻirish yoki tarjimasiz tashlab ketish, asar qahramonlarining holatiga muvofiq frazeologizmlarni toʻqib chiqarish kabi hollarga xarakterli misollar keltirgan edi.

Y.Poʻlatovning 1963-yilda himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasi Mopassan ijodiy merosini mamlakatimizda oʻrganish sohasida salmoqli dadil qadam boʻldi. Bu tadqiqotning soʻnggi uchinchi bobi bevosita “Gi de Mopassan novellalari oʻzbek tilida” deb nomlangan. Mazkur bob avvalida olim Mopassan novellalarini oʻzbek tiliga tarjima qilinish tarixini yoritadi. Shundan soʻng dissertatsiyada Gi de Mopassan novellalari tarjimasini tahlil etiladi. Mazkur bobning muhim jihati shundaki, muallif Mopassan asarlarining ozarbayjon, qozoq, tatar, qirgʻiz, qoraqalpoq kabi turkiy tillarga qilingan tarjimalarini ham tahlil doirasiga kiritadi, ayrim novellalar (“Tuan”, “Chol”, “Gado”, “Doʻndiq” kabilar)ning bir necha tarjima variantlarini oʻzaro qiyoslaydi.

Y.Poʻlatovning “Badiiy asarda nomlar tarjimasini (1967), “Asrlarga tutash hamkorlik”(1974), “Oʻzbekistonda chet el adabiyotini oʻrganishga doir” (1975) nomli risolalarida ham adabiy aloqalar, tarjimashunoslikning umumiy masalalar bilan bir qatorda Mopassan novellalariga tarjimasiga oid qiziqarli va muhim fikrlar keltirilgan.

Adabiyotshunos olim Q.Rasulov “Portret yaratish sanʼatiga doir” nomli maqolasida buyuk sanʼatkorlar asarlarida kishini sehlrab qoʻyadigan odamlar qiyofasi takrorlanmas qilib chizib berilishini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash maqsadida Mopassanning mashhur “Doʻndiq” hikoyasiga qayta-qayta murojaat qilgan edi.

Bu davrga kelib tadqiqotchi olim M.Xolbekov umuman fransuz-oʻzbek adabiy aloqalari, jumladan, Mopassan ijodini oʻrganish bilan jiddiy shugʻullana boshladi. 1977-yilda olimning “Gi de Mopassanning “Azizim” romani oʻzbek tilida” nomli maqolasi eʼlon qilindi. Bu maqolada I.Gʻafurov tomonidan 1975-yilda amalga oshirilgan “Azizim” romani tarjimasini bilan bogʻliq holda Mopassan ijodiy merosiga, yozuvchi uslubi, uning oʻzbekcha tarjimadagi ifodasi masalalariga oid muhim fikrlar bayon etilgan.

M.Xolbekovning “Parda Tursun- fransuz adabiyotining tarjimoni” nomli maqolasida Mopassanning “Tuan”, “Mayiblar onasi”, “Sayek”, “Belom xalfaning jonivori”, “Chol”, “Suxsirlar”, “Qishloq sudida”kabi novellalari tarjimasiga oid ba’zi fikr-mulohazalar bayon etilgan.

G`afur G`ulom nomidagi aabiyot va san’at nashriyoti 1987-yilda buyuk fransuz yozuvchisining “Hayot”, “Azizim” romanlari va “Do`ndiq”, “Asirlar”, “Madmuzel Fifi”, “Oqsoch qiz sarguzashtlari”, “Darbadar”, “Portda”, “Alvasti”, “Rozali Pryudan” kabi novellalaridan iborat kitobini “Jahon adabiyoti durdonalari” seriyasida ko`p ming nusxada nashr ettirdi. Bu mamlakatimizda shu kunga qadar Mopassan asarlari tarjimasining eng kata nashri edi. Bu kitob M.Xolbekovning “Gi de Mopassan ijodi” nomli salmoqli maqolasi bilan ochiladi. Mazkur maqolada Mopassan ijodi yaxlit, XIX asr jahon adabiyoti fanida tahlil etilgan, yozuvchining insonning ichki dunyosini ochib beruvchi, sotsial turmush qirralarini real kartinalarda yorituvchi yangi tipdagi novellalar yaratgan, “Azizim”, “Hayot”romanlari esa Stendal, Onore de Balzak, V.Gyugo, J.Sand, Flober, E.Zolya asarlari qatoridan munosib joy olganligi ko`rsatib berilgan.

1988-yilda “O`zbekistonda tarjimachilik”nomli ilmiy to`plam nashr etilgan edi. Bu to`plamdan Z.Isomiddinovning Zumrad Orifjonovanning tarjimonlik faoliyatini yorituvchi adabiy portret xarakteridagi ishi ham o`rin olgan.

M.Xolbekov “Gi de Mopassan merosi O`zbekistonda” (tarjima va tanqid tarixidan) nomli maqolasida Mopassan asarlarinng o`zbek tiliga tarjima qilinish tarixi va bunda P.Tursun, M.Hakim, Zumrad, I.G`afurov kabi tarjimonlarning mahorati, bu tarjimalarda yo`l qo`yilgan ayrim qusurlar haqida fikr yuritadi. Shunisi muhimki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda Mopassan asarlarini originaldan fransuz tilidan o`zbekchaga tarjima qilish an’anasi yo`lga qo`yildi. Jumladan, Sh. Minavvarov, B.Yo`ldoshev kabi tarjimonlar sa’y-harakati bilan Mopassanning “O`lib tirilgan”, “Yolg`izlik” kabi hikoyalari bevosita fransuzchadan o`zbek tiliga tarjima qilindi.

Shuningdek, B.Ermatov XIX asr fransuz realistik novellalarining o'zbek tiliga tarjimalariga oid nomzodlik dissertatsiyasida ham Mopassan novellalarining tahliliga alohida e'tiborni qaratgan edi.

B. Ermatov 1991-yilda Samarqandda o'tkazilgan respublika anjumanida "Gi de Mopassan va o'zbek adabiyoti" degan mavzuda qiziqarli chiqish qilgan edi. Bu ma'ruza muallifi Mopassan ijodining o'zbek hikoyachiligiga ta'siri haqida so'z yuritarkan, bunday ta'sirning ijobiy tomonlari bilan birga, ayrim tanqidchilikka moyil o'rinlarni ham keskin tanqid qiladi. Ya'ni B.Ermatov to'g'ri ta'kidlaganidek, 70-80-yillarda o'zbek adabiyotida Mopassanga ko'r-ko'rona taqlid qilish kuchayib ketdi, natijada adabiyotimizda ishq-muhabbat, oilaviy mavzularda yozilgan xaridorgir romanlar, qissalar, hikoyalar yuzaga keldi. Bunday asarlarda muhabbatga, ishq-vafoga o'tkinchi bir his, hayvoniy bir ehtiyoj sifatida qaraladiki, bu sharqona an'analar ruhida tarbiyalangan o'zbek xalqining axloqiy aqidalariga tamomila nomuvofiqdir. Bunday taqlidchilikka qarshi kurashish adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Ko'rinadiki, o'zbek adabiyotshunosligida Mopassan ijodiy merosi, uning asarlari tarjimasi haqida bir qancha ishlar yuzaga keldi, mamlakatimizda o'ziga xos mopassanshunoslik yo'nalishi shakllandi. Lekin amalga oshirilgan bu ishlar hozirgi kunda daryodan bir tomchi bo'lib, kelgusida Mopassan ijodiy merosi o'zbek prozasi bilan uzviy mushtarak holda hozirgi davr adabiyotshunosligi yutuqlari kontekstida yanada chuqurroq tadqiq etilishi zarur. Bu esa umuman o'zbek adabiyoti, jumladan hozirgi o'zbek nasrining rivojiga yanada samarali ta'sir qilishiga mustahkam zamin hozirlaydi.

1.2. Mopassan hikoyalarida realizm va romantizm

XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida yirik monopoliyalar paydo bo`ldi. Finans oligarxiyasi hukmronligi boshlandi. Imperialistik davlatlar (Angliya, Fransiya, Germaniya va AQSH) o`rtasidagi ziddiyatlar ortdi. Ular yer kurrasining turli tomonlarida mustamlakalar bosib olish siyosatini kuchaytirdilar. Kapitalistik davlatlar o`rtasidagi bu qarama-qarshiliklar oqibatida, jahon imperialistik urushi kelib chiqdi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yashagan realistlar ijodida ijtimoiy tengsizlik, zulm, dahshatni fosh etish bosh masala bo`lib qoladi. Ma`lumki, har bir yozuvchining o`ziga xos tasvirlash usuli bor. Masalan: Mann ijodida hajv-grotesk kuchli bo`lsa, Gi de Mopassanda chuqur psixologik tasvir, Bernard Shou va Anatol Fransda esa kinoya piching bo`rtib turadi.

Tanqidiy realistlar turli janrlarga, jumladan, Mopassan, Rollan sotsial-psixologik roman, Ibsen Shou sotsial-psixologik drama, Uells ilmiy fantastik roman, London Frans, Uells sotsial-utopik roman, Frans, Rollan, Tven tarixiy roman, tarixiy drama, Drayzer, London sotsial roman janrlariga murojaat etadilar.

XIX asrning ikkinchi yarimida yashab, o`z ijodida o`sha davr Fransuz voqeligini aks ettirgan yirik realist yozuvchidir.

Mopassan Normandiyada kambag`allashib qolgan eski dvoryan urug`iga mansub oilada tug`ilgan. Uning dastlabki hikoyalari 1875-yilda e`lon qilingan. Yozuvchining nomini hamma yoqqa ma`lum qilgan «Do`ndiq» asari 1880-yil chop etilgan.

Mopassan qisqa umri davomida 16 ta roman va ko`plab maqolalar yozgan. Uning ijodi 3 davrga bo`linadi. Birinchi davri 1863-1878-yillar asosan she`r va hikoyalar yozadi.

«Do`ndiq» (1880 yil) hikoyasi bilan ijodining ikkinchi davri boshlanadi.

Mopassanning ko`pchilik novellalari bosqinchilik urushlarni fosh etishga bag`ishlangan. Ularda nemis ofitserlarining vaxshiyliklari ko`rsatilgan, oddiy fransuzlarning vatanparvarlik his-tuyg`ulari va kurashlari yorqin obrazlarda ochilgan.

«Do`ndiq», «Fifi xonim», «Aqldan ozgan qiz», «Duel», «Ikki oshno», «Milon amaki», «Asirlar» va hakoza.

Yozuvchining «Hayot» 1883-yil yozilgan romanida sof qalbli go`zal aqlli Janna ismli qizning tarixi berilgan. Janna kamtar XVIII asr ma`rifatchilik g`oyalari ruhida tarbiyalangan baron de Vonning qizi tabiatdan zavqlanadi. Shuning uchun Janna Russoning «Tabiiy inson» ideali mujassamidek ko`rinadi. U shirin sevgi xayoli, baxtli oila qurish ishtiyoqi bilan yashaydi.

Janna o`zi bilmagan, hatto nomini ham eshitmagan Jyulen de Lamarga turmushga chiqadi. Tez vaqt ichida Janna erining qo`pol yuzsiz beodob kishi ekanini biladi va baxtli hayot haqidagi xayollari zarbaga uchraydi. Asarda Janna obrazi harakatda berilgan. Dastlab u voyaga etgan jozibador qiz asar oxirida esa be`mani va dahshatli hayot natijasida erta qarib dardman va keksa kampir qiyofasiga kirib qolgan baxtsiz bir xotin sifatida tasvirlanadi.

«Azizim» 1885-yil Mopassanning uchinchi respublika davridagi fransuz burjua jamiyati illatlari avj olgan sotqinlikni fosh etgan ikkinchi muhim romandir. Asarning bosh qahramoni qishloq qaxvaxonachisining o`g`li Jorj Dyuruadir. U Afrikada soldat bo`lib xizmat qilgan va mustamlaka xalqlarni kamsitish va qo`lga o`lja kiritishga qaratilgan harakatlarda qatnashadi bular uning xarakterining qupol shaxsiyatparast bo`lib shakllanishiga ta`sir etadi.

Yozuvchining bu asarini o`zbek tiliga Ibrohim G`afurov 1975- yil tarjima qilgan.

Realistik elementlar barcha davrdagi ijod namunalarida mayjud. Realizm (lotincha realist – ashyoviy) – hayot haqiqatini asliga muvofiq tasvirlash, detallar va obrazlarning haqqoniyligini talab qiladi. Hayot haqiqatiga sodiqlik – uning asosiy shioridir. Realistlar obrazlar va hodisalarning hayotiylikiga alohida e'tibor berganlar. Asar tili, qahramon nutqi, sujet, konflikt kabi unsuriyalar barchasi haqqoniylik talabiga bo`ysundirilgan. Bu metod ijodkorning o`zini qurshab turgan voqelik va insonlar to`g`risida o`ylagan haq gapini aytish, kitobxon ko`z o`ngida real hayot va real insonlarni gavdalantirish yo`li bilan voqelik va inson to`g`risidagi haqiqatni

ko'rsatish imkonini beradi. Realistik adabiyot buyuk namoyandalarning haqiqat kurashchilari sifatidagi xizmatlari beqiyosdir.

Fanda realizmning ilk bor qachon paydo bo'lganligi to'g'risida, aniq fikrga kelinmagan. Ko'plab tadqiqotchilar realizm ildizlarini juda qadim zamonlardan izlaydilar. Ibtidoiy insonning qoyalarga chizgan rasmlari va antik adabiyot namunalarida ham realistik unsurlarni kuzatadilar. Biroq realizmning badiiy tizim sifatida shakllanishi Uyg'onish davri bilan bog'lanadi. Aynan shu davrga kelib insonga, uning qalbiga, kechinmalariga e'tibor kuchayadi, tabiiy tuyg'ulari bo'rttirib tasvirlanadi, kechinmalarga shoirona ruh beriladi. Shekspir, Servantes asarlarida realizmning o'ziga xos tarzda namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin.

Realizm taraqqiyotidagi ikkinchi bosqich ma'rifatchilik davriga to'g'ri keladi. XVIII asrda ingliz realistik romani vujudga keladi (D.Defo «Robinson Kruzo» romani bilan ushbu janrga asos soladi). Inson aqliga, uning imkoniyatlariga yuqori baho beruvchi ma'rifat-chilik realizmi hayot hodisalari va insonlar xatti-harakatlarini aqlga muvofiq yoki muvofiq emasligidan kelib chiqib baholar edilar. Aqlga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakat deganda barcha qoloq urf-odatlar, eskirgan tartibotlar tushunilar edi. Shu sababli ma'rifatchilarning ijobiy qahramonlari o'tkir aqli bilan ajralib turadilar, salbiylari esa qoloq, johil odamlar. Ma'rifatchilik realizmi shartlilikka yo'l qo'yadi, fantastik elementlardan foydalanadi. (Masalan, Defo, Svift qahramonlari yoki Gyotening «Faust» asanni misol qilib keltirish mumkin.

XVIII asr adabiyotida realizm va romantizm o'rtasida keskin chegara o'rnatish qiyin. Masalan, fransuz adibi Prosper Me rime asarlarida qahramonlar, sujet romantik asarlarga xos bo'lsa-da, faktik aniqlik uslubdagi xolislik uni realizmga yaqinlashtiradi. Ingliz adabiyotida Charlz Dikens asarlarida maishiy-ijtimoiy roman an'analari davom ettiriladi, hayotiy manzaralar, hayotiy odamlar obraziga murojaat etiladi, ayni paytda avantyuristik o'rinlar, jinoyat, sirlilik kabi unsurlarning qo'llanishi romantik metodda yaratilgan asarlarni yodga soladi.

XIX asrda realizm yangi bosqichini boshladi Flober, Mopassan, rus adabiyotida Lev Tolstoy, A.P.Chexov kabi yozuvchilar ijodda renessans va ma'rifatchilik realizmidan farqlanuvchi xususiyatlarini namoyon qildilar. Fransuz adibi Floberning

«Bovari xonim» romanida realizm an'analaridan keskin uzilish seziladi, bu asar realizmga xos hayot haqiqatiga sodiqlikni yaqqol namoyon qiladi. Endi insonning ijtimoiy hayot bilan munosabati, uning taqdiriga ijtimoiy muhit, tartibotlar ta'siri diqqat markaziga ko'chadi. Ayni paytda inson ruhiyati, qalbi tahliliga alohida e'tibor beriladi.

Rus adabiyotida N.V. Gogol tomonidan kashf etilgan tuzum tartibotlari, ijtimoiy muhit ta'sirida maydalashgan «kichkina odam» qalbi, kechinmalari F.M.Dostoyevskiy, Anton Chexov ijodida yetakchi mavzuga aylanadi. Dostoyevskiyning bir qarashda noan'anaviy tuyulgan asarlarida inson qalbining o'ta murakkab, sirli manzaralari, hali qalamga olinmagan tublari ochib ko'rsatiladi.

XX asr boshlarida rus adibi Mixail Sholoxov, o'zbek adabiyotida Cho'lpon, Abdulla Qodiriy bu metodning o'lmas namunalarini yaratdilar. Amerika adibi Ernest Xeminguey, ingliz adibi Somerset Moem kabi yozuvchilar ijodida realizm o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi, keyinchalik qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov, rus yozuvchilari M.Shukshin, V.Rasputin kabilarning mazkur metod imkoniyatlarini namoyon qiluvchi asarlari vujudga keldi.

Realizm uzoq davom etgan taraqqiyot bosqichini boshidan kechirgan, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, uning unsurlari, xilma-xil ko'rinishlari adabiyot tarixining barcha bosqichlarida kuzatilgan bo'lsa-da, uning tugal metod sifatida o'z imkoniyatlarini to'la namoyon qilishi XX asrga to'g'ri keladi. XX asr jahon adabiyotida ingliz adibi S.Moem, amerikalik E.Xeminguey, Lotin Amerikasi adibi Gabriel Garsia Marques singari adiblar ushbu oqimning eng ko'zga ko'ringan, uning rivojiga katta hissa qo'shgan va ayni paytda uni ulkan kashfiyotlari bilan boyitgan, biri ikkinchisini takrorlamaydigan o'ziga xos ijodkorlardir.

Mopassan ham shu kabi buyuk yozuvchilar qatorida turadi. "Oydin kecha", "Opa-singil Gondomelilar" novellalari o'quvchi qalbida chuqur iz qoldiradi. Uning novellalari goh kuldirsa, goh yig'latadi. Mopassan novella janrini yuqori pog'onaga ko'tardi. Uning ko'pgina hikoyalarida realistik ruh yaqqol sezilib turadi. Jumladan, "Sadoqat qurboni", "Marjon shodasi", "Do'ndiq", "Tavba" kabi hikoyalari realistik ruhda yozilgan. Bu hikoyalarda hayotimizda doimo uchrab turadigan muammolar

haqida hikoya qilinadi. Hikoyalarda yoritib berilgan muammolar hozirgi kunda ham ahamiyatli. Masalan, “Sadoqat qurboni” hikoyasida go`zal va latofatli Gortenziya va Sijisber ismli yigit bir-birlarini sevib qolishadi. Bir kuni ular yashirincha uchrashayotganlarida Sijisberning qattiqqo`l o`qituvchisi ularni payqab qolgandek bo`ladi. Yigit qo`rqqanidan qizga tezroq yashirinishini buyuradi. Qiz nima qilishni bilmay derazani ochadi-da, o`zini ko`chaga otadi. Shundan keyin bechora qiz oqsoqlanib yuradigan bo`lib qoladi. Yigit esa undan xabar olgani bir marta ham kelmeydi. Gortenziya umrining oxirigacha kir yuvuvchi bo`lib ishlaydi. Unga Maymoq xola deb laqab qo`yadilar. Bu ayol oliy darajada tarixiy jasorat ko`rsata oladigan qahramonlar xilidandir. Bu uning umrida yagona va oxirgi muhabbati edi. U bokiraligicha olamdan ko`z yumdi. Bu jafokash ayol, xudoning eng mo`min bandasi va o`z sadoqatining begunoh qurboni bo`ldi. Yozuvchi manashunday real voqeani, hayotiy muammoni tasvirlagan.

Romantizm (frans.romantisme) – XVIII asrning 1-yarmi va XIX asrda Yevropa, shuningdek, Amerika adabiyoti va san`atida paydo bo`lgan hamda jahon bo`ylab keng tarqalgan oqim. Romantizm ispancha “romans” so`zidan olingan bo`lib, bu so`z dastlab lirik va qahramonlik mazmunidagi qo`shiqni, keyinchalik esa ritsarlar haqidagi kata epik asarlarni anglatgan. “Romantik” sifatdoshi XVII asrda roman tillarida yozilgan avantyura va qahramonlik ruhi bilan sug`orilgan asarlarga nisbatan qo`llana boshlagan. Ingliz yozuvchilari va adabiyotshunoslari 18-asrda O`rta asrlar va uyg`onish davrlari adabiyoti haqida bahs borganda shu so`zdan foydalanganlar. Anglyaga romantizmning kirib kelishi arafasida she`riyatning muhim unsuri hisoblangan barcha g`ayrioddiy, sirli, g`aroyib va fantastic narsalar(tuyg`ular, holatlar, sarguzashtlar) romantic so`zi orqali ifodalana boshlagan. XVII asr oxirida Germaniyada, XIX asr boshlarida esa Fransiyada, shuningdek, Italiya, Polsha,Rossiya kabi mamlakatlarda romantizm klassitsizmdan farqlanuvchi adabiy oqimning nomi sifatida iste`molga kirgan.

Romantizm Yevropadagi barcha mamlakatlarni o`z qamroviga olgan g`ayrima`rifatparvarlik harakatining samarasidir. Buyuk fransuz inqilobining natijalaridan qoniqmaslik bu oqimning paydo bo`lishida ijtimoiy zamin bulib xizmat

etgan. Burjua jamiyatidagi turmush tarziga, jamiyat a`zolaridagi xudbinlik va axloqsizlik ko`rinishlariga qarshi kayfiyat, sanoat, siyosat va ilm-fan sohalaridagi taraqqiyotning yangi-yangi ziddiyatlarni keltirib chikarishi romantiklarda mutlaq ideallarga intilish hissini uyg`otdi. Ular hayotni qisman takomillashtirishni emas, balki undagi barcha ziddiyatlarni butunlay bartaraf etishni orzu qiddilar. Ideal bilan voqelik o`rtasida katta farqning borligi romantizmga o`zining yorqin ifodasini topdi va bu hol romantizmga xos 2 yo`nalishning mohiyatini belgilab berdi. Agar ayrim romantiklar ijodida hayotda akl bovar qilmaydigan, sirli kuchlar hukmronlik qiladi, binobarin, takdirga tan berish kerak, degan fikr ustuvorlik qilgan bulsa (U.Vordsvort, S.T.Kolrij, R.Sauti, F.R.Shatobrian, V.A.Jukovski), boshqa birlari (J.N. Bayron, P.B.Shelli, A.Mitskevich, M.Yu.Lermontov) ijodida zulm va zo`ravonlik dunyosiga qarshi kurash va undan norozilik kayfiyati yetakchi ahamiyatga ega.

Romantizmga ideal bilan voqelik o`rtasidagi ziddiyatni ifodalovchi vositalardan biri kinoya (A.Myusse, G.Geyne va boshqalar). Dastlab kinoya har qanday tarixiy voqelik nisbiydir, degan fikrning e`tirof etilishini anglatgan bulsa, keyinchalik romantik ideallarning ro`yobga chiqmasligini anglash hissi bilan to`yingan.

Romantizm namoyandalari jamiyatdagi rangsiz hollarga qarshi o`laroq fantastika, xalq rivoyatlari, tabiat manzaralari, o`tgan tarixiy kunlar, olis xalqlar va mamlakatlar turmushi, urfodatlari hamda xulqatvorlarini tasvir doirasiga tortdilar; katta ishqiy ehtirosalar va ruhiy hayot tasviriga alohida e`tibor berdilar. Shu sababdan din, san`at va falsafaning romantizmdagi o`rni va ahamiyati mislsiz darajada oshdi.

Klassitsizm estetikasidagi "tabiatga taqlid" tamoyiliga qarshi o`laroq romantiklar san`atkorning ijodiy faolligini o`zlarining ustuvor aqidalari deb bildilar. San`atkor, romantizm estetikasiga ko`ra, real olamni uzgartirish huquqiga ega: u o`zining go`zal va haqiqiy, binobarin, real olamini yaratadi; modomiki, san`at bu olamdagi eng yuksak kadriyatni tashkil etar va bu olamning mohiyatini ifodalar ekan, demak, u reallikdir. San`at asari, romantik estetikasiga ko`ra, bamisoli tirik organizm, badiiy shakl esa mazmunning pustlog`i yoki g`ilofi emas, balki shu mazmunning ichichidan o`sib chiquvchi va mazmun bilan uzviy ravishda bog`liq hodisa. Romantiklar estetikadagi mezonlashtirish hollarini, san`atning yaxshi maqsadda

bo'lsada, muayyan chegara ustunlari bilan o'ralishini inkor etib, san'atkorning ijodiy erkinligini ehtiros bilan himoya qildilar. Shunga qaramay, ular o'zlarining yangi estetik qonun va qoidalarini ham ishlab chiqdilar.

Romantizm davrida yangi badiiy shakllar maydonga keldi. Tarixiy roman, fantastik qissa, liroepik doston janrlari, sahna san'atidagi islohotlar shu davrning ajoyib samaralaridir. Lirik xuddi shu davrda o'zining ikkinchi bahorini kechirdi. She'riy so'zning yangiyangi ma'no qirralari kashf etildi va she'riy so'z his va tuyg'u silsilalarini ifodalash uchun istioraviy vositalar bilan boyidi. She'riyatda musiqiy va tasviriyl ibtido o'zaro uyg'unlashdi; san'at, falsafa va dinning omuxta ko'rinishlari paydo bo'lib, san'at turlarining o'zaro yaqinlashish, oddiy hodisalar bilan g'ayrioddiy hodisalarning , komizm bilan tragizmning uyg'unlashish jarayoni avj oldi. Fantastikaga, hajviy mubolag'alarga, shaklning oshkora shartliligiga moyillik Romantizm namoyandalarining badiiy tasvirdagi o'ziga xosligini belgilovchi omillarga aylandi.

Germaniya romantizmning mumtoz mamlakati bo'lib, buyuk fransuz inqilobi shabadalarining bu yerdan esib o'tishi ijtimoiy muammolarning falsafa, etika va, ayniqsa, estetika sohalariga ravon kirib borishiga imkon berdi. Nemis yozuvchilari va nazariyotchilarining Iyen maktabi (V.G.Vakkenroder, Novalis, akauka F.A.Shlegellar va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan romantik estetika va dunyoni romantik his etish asoslari nemis R.ining birinchi avlodi vakillari ijodida o'zining dastlabki samaralarini berdi (Tikning "Etik kiygan mushuk" komediyasi, Novalisning "Tun madhiyalari" lirik turkumi va "Genrix fon Ofterdingen" romani va boshqalar). Nemis romantiklarining ikkinchi avlodi (Geydelberg maktabi) din, milliy o'tmish va xalq og'zaki ijodiga ko'proq qiziqdi (L.Arniv va Brentano to'plagan "Bolaning sehrli shoxi" xalq qo'shiqlari to'plami, aka-uka Ya. va V.Grimlarning ertaklari). Shu davrda lirik she'riyat ham kamol topdi (Y.Eyxendorf). Folkloristika va adabiyotshunoslikdagi birinchi yo'nalish – mifologik maktabga asos solindi. Jamiyat va insoniyat taraqqiyoti muammolariga e'tibor karatish, tarixiy jarayonning ziddiyatliligi, hatto halokatli oqibatlariga olib borishi mumkinligini his etish ingliz romantizmiga xos xususiyatlardir. Dunyoni aql-idrok yordamida qayta qurish mumkinligiga ishonmagan

shoirlar avlodi (U.Vordsvort, S.T.Kolrij, R.Sauti) insonning botiniy hissiyotiga chuqurroq kirishni targ'ib qildilar. Milliy o'tmish va xalq og'zaki ijodiga qiziqish Valter Skottning Yevropa adabiyotlaridagi tarixiy roman janriga asos solishi va o'rta asrlar hayotidan olingan romantik asarlarning maydonga kelishi bilan yakunlandi. "Londonlik romantiklar" guruhi vakili J.Kits she'riyatida dunyoning va inson tabiatining go'zalligi o'z in'ikosini topdi. Kurash va norozilik kayfiyati bilan yo'g'rilgan J.N.Bayron va P.B. Shellining romantik ijodi ingliz romantizmi o'z taraqqiyotining yuksak bosqichiga kirganini namoyish etdi.

Fransiyada klassitsizm an'analari uzoq vaqtgacha o'z kuchini saqlab keldi. Shu tufayli romantizmning fransuz adabiyoti va san'atiga kirib kelishi katta qiyinchilik bilan kechdi. Faqat XIX asrning 20-yillaridagina romantizm fransuz adabiyotidan o'zining qonuniy o'rnini egalladi. Ma'rifatparvarlik davri merosi va o'tmishdagi adabiy an'analar bilan uzviy aloqa, davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammolariga qiziqish fransuz romantizmining ajralmas xususiyatlaridir. Fransiyada romantizmning shakllanishi, birinchi navbatda liropsixologik roman va qissa janrlarining yaratilishi bilan bog'liq (F.R.Shatobrianning "Atala" va "Rene", J.Stalning "Deolfina" va "Korina yoki Italiya", E.P.Senankurning "Oberman" asarlari va boshqalar). Fransuz romantizmi davrida she'riyat, ayniqsa, gullab-yashnadi (A.Lamartin, V.Gyugo, A.Vini, A.Myusse, Sh.O.Sent-Byov va boshqalar). Eski san'at tarafdorlari bilan qizg'in kurash natijasida romantik drama janri qam tantana qilib, teatr sahnalaridan munosib o'rin egalladi (A.Dyuma, V.Gyugo, A.Vini, A.Myusse). Roman janrining psixologik (A.Myusse), tarixiy (A.Vini, ilk O.de Balzak, P.Merime) va ijtimoiy (V.Gyugo, Jorj Sand, E.Syu) turlari maydonga keldi. Romantizm adabiy tanqid sohasida ham o'z nishonalarini berib, Sent-Byov asoschisi bo'lgan biografik metodning tug'ilishiga zamin hozirladi.

Rossiyada romantizmning tug'ilishi 1812-yil. Vatan urushidan keyingi milliy ko'tarilish davri bilan bog'liq. Rus adabiyotida romantizm kurtaklari romantik doston janri (Masalan, A.S.Pushkin "janubiy" dostonlari)ning yuzaga kelishi bilan aniqlik kasb etdi. Bayronning Sharq dostonlari ta'sirida yozilgan rus romantik dostonlarida yangi tasvir tamoyillari ko'zga tashlandiki, bular bosh qahramon taqdiri tasvir

etilganligi, doston matnidagi uslublarning rang-barangligi, ijodkorning tarixiy haqiqatdan chekinib, o'z badiiy versiyasini yaratganligidir. Doston rus romantizm taraqqiyotida shu qadar muhim rol o'ynadiki, hatto romantik nasr va dramaturgiya asarlari ulardagi yetakchi kolliziyalarning rivojlantirilishi hisobiga maydonga keldi. V.A.Jukovskiy, K.N.Batyushkov, A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov va boshqalarning romantik asarlari).

Romantizm shu davrda Yevropaning boshqa mamlakatlari (Italiya, Ispaniya, Avstriya, Daniya, Shvetsiya, Vengriya, Ruminiya, Polsha)ga kirib bordi. Milliy mustaqillik g'oyasining yetakchilik kelishi ma'rifatparvarlik an'alaridan yuz o'girmagan AQShda ham romantizmning rivoj topishiga imkoniyat yaratdi. Romantizm shuningdek, Osiyo mamlakatlari (Hindiston, Xitoy, Yaponiya)da ham o'ziga xos ifodasini topdi. O'rta Osiyo mamlakatlarida romantizm Yevropa mamlakatlari adabiyoti va san'atidagi singari, izchil oqim sifatida shakllanmadi.

O'zbek adabiyoti va san'ati XVIII asrga qadar va undan keyingi davrlarda o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tgani uchun o'zbek romantizmi to'g'risida so'z yuritish o'rinsizdir. Ammo XX asrning 10-20-yillarida jadid adabiyotida taraqqiyparvarlik g'oyalarining targ'ib etilishi (Masalan: Cho'lponning "Do'xtir Muhammadyor", Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asarlarida), ayniqsa, 30-yillarda o'zbek adabiyoti va san'atiga rus madaniyati an'alarining kirib kelishi natijasida milliy adabiyot va san'atda romantik tasvir uslubi shakllana boshladi. Cho'lpon ("Go'zal"), Oybek ("O'zbekistan"), G'afur G'ulom ("Bog"), shuningdek, Hamid Olimjon, Uyg'un va boshqa shoirlarning ko'plab she'rlarida yor, vatan, ona, muallim obrazlari romantik tasvir bo'yoqlari yordamida yaratildi. Xuddi shunday jarayon kino ("Qasam", "Tohir va Zuhra", "Alisher Navoiy" filmlari) va teatr ("Tormor", "Uyg'onish", "Buyuk kanal", "Sharqtongi" spektakllari) va boshqa san'at turlarida ham kechdi. O'zbek adabiyoti va san'atida romantik tasvir uslubining shakllanishi sovet mafkurasining talabi va rag'batlari bilan yuz berdi hamda sovet voqeligini tasdiqlash ishiga xizmat qildi.

Romantizm adabiyot va san'at taraqqiyotidagi muhim oqimlardan biri sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa, Amerika va Osiyoning aksar

mamlakatlarida o'z o'rnini realizmga bo'shatib berdi. O'zbek adabiyoti va san'atida o'tgan asrning 20-yillarida ko'rina boshlagan realizm adabiy metod sifatida 40-60-yillarga kelib uzil-kesil shakllandi. Romantizm boshqa ayrim milliy adabiyot va san'atlar qatori, o'zbek adabiyoti va san'ati asarlarida hozir ham romantik pafos sifatida yashab kelmoqda.

Mopassanning ko'pgina hikoyalarida realistik ruh ifodalansa-da, ba'zi asarlarida romantizm ham yaqqol sezilib turadi. Jumladan, uning "Oy yog'dusi" hikoyasida muhabbatni tarannum etadi. Muhabbatning kuchi qahrli insonni ham yenga olishi, toshdek qalbni ham yumshata olishini yana bir karra isbotlab beradi. Hikoyada Abbat ismli ruhoniyy bosh qahramon sifatida tasvirlanadi. Abbat xudojo'y inson bo'lib, uning iymon- e'tiqodi juda mustahkam edi. Abbat xudovandi karimni mufassal anglab yetdim, uning mohiyatiga kirib bora oldim deb hisoblardi. Ammo Abbat xotinlarni yomon ko'rardi. Rbari uhoniyyning onasi bilan qo'shni uyda yashaydigan bir q'iz jiyan bo'lib, u hadeb jiyanini shafqat hamshirasi bo'lishga undagani undagan edi. Jiyan yoqimtoygina, hammaning ustidan kulib yuradigan qaqajon qiz edi. Bir kuni qishloq ruhoniysining xotini-abbat Marinyan yashaydigan uyning boshqaruvchisi ruhoniyyga sekingina kutilmagan bir xabarni yetkazdi. Emishki, uning jiyan kimdir birov bilan oshiq- ma'shuq bo'lib olganmish. Abbat bu gapga ishongisi kelmay, jahli chiqib baqirib yuboradi. Abbat jiyanini tekshirib ko'rish uchun oy yog'dusida yarim tunda dalaga chiqadi. Tabiatning go'zal manzarasini ko'rib ko'nglidagi barcha g'amlarni unutgandek bo'ladi. Yurib borar ekan yigit va qizning bir-biriga juda yarashib turgan soyasiga ko'zi tushadi. Abbat oyoqlarida joni qolmaganini sezdi- u o'zini shunchalar yo'qotgan, yuragi shunchalar gupillab urardiki, naq ko'z oldida Bibliya manzaralarini- Ruf va Vooz muhabbatini, muqaddas kitoblarda insho etilganiday, Yaratganning dilbar tabiat quchog'ida tajalliy topgan xohish-irodasini ko'rib turardi. Uning miyasida Shoh asardan baytlar, ehtiros qichqirig'i, jismoniy tananing dav'ati, ishq- muhabbat bilan alangalangan bu dostonning kuydirgich nafosati yangray boshladi. Ruhoniyyning xayolidan: "Qodir egam bunday tunlarni insoniy sevgini ilohiy musaffolik pardasiga o'rash uchun bunyod etgan bo'lsa ehtimol", – degan o'y kechdi. Va u bir-birini quchgan bu juftlikdan asta uzoqlashdi. Vaholangki, u o'z jiyanini tanigan edi, ammo

endi o`zidan “ xudoga shak keltirmadimmikin?” deb so`rashga o`zida kuch topa bildi. Modomiki, Tangri inson muhabbatini shunday dabdaba bilan o`ragan ekan, demak,u odamlar bir-birlarini sevishlariga ijozat bergan. Shunday qilib, Abbat ularning sevgisiga tan berdi.

II bob. Mopassan hikoyalarida ruhiy holatlarning talqini va tasviri

2.1. Mopassan hikoyalarida ruhiy tahlil ko`rinishlari

Mopassan – mohir hikoyanavis. Darhaqiqat, uning hikoyalari haqiqiy hayotni tasvirlab yaqqol namoyon eta oladi. Mopassan hikoyalarida yolg`on tasvirlardan chekinadi. Uning novellarida ma`naviy qashshoq munofiq kishilar obrazining butun bir silsilasi yaratiladi. (“Javohirot”, “Oila bag`rida”, “ Vasiyatnoma”, “Bochkacha”, “Iblis” va b.lar). Uning “Daydi”, “Shkaf”, “Gadoy” kabi novellarida turmush qa`riga uloqtirilgan notavonlar hayoti tasvirlangan, Muhabbatni mol-dunyodan iborat deb biluvchi, shu bois har qadamda o`zini sotishga tayyor ayollar obrazi “Ivetta”, “Haqqoniy tarix” va boshqa asarlarida mahorat bilan chizilgan. Mopassanning hikoyalarida chuqur mazmun mujassam. Jumadan, uning “Tavba”, “Sadoqat qurboni”, “Marjon shodasi”, “Do`ndiq”, “Oy yog`dusi”, “Tun”, “Murdaning qo`li” “Tavba” kabi hikoyalari hayotiy haqiqatlarga boyligi, asar qahramonlari ruhiy holatlarining aniq va ajoyib tarzda ochib berilganligi bilan kitobxon e`tiborini tortadi. Hikoyalardagi mazmun, mohiyat, g`oya hali ham eskirmagan. Galdagi fikrimizni isboti uchun shu hikoyalarni tahlilga tortsak.

Margarita de Terel jon talvasasida edi. U oltmish besh yoshda bo`lib, ko`rinishi yetmish beshlarga borgandek taassurot uyg`otardi. Ayol zo`rg`a nafas olar, dokadek oqargan yuzi bezovta titrar, azobda qolgan vujudini qaltiroq bosgan, ko`zlarida yovvoyi o`t chaqnar, shu paytda u qo`rqinchli bir manzarani ko`rib turganga o`xshardi. Undan olti yosh katta opasi Syuzanna karavot yonida cho`kkalagan ko`yi, bo`zlab o`tirardi. Jon berayotgan ayolning yonginasida, sochiq to`shalgan mo``jaz stol ustida bir juft sham yonib turar, shu tobda uning badaniga zaytun moyi surishi va uni gunohlardan forig` etishi uchun ruhoniyni kutishardi.

Yotoqxonada, o`lim talvasasidagi odam yotgan odatiy xonalardagi singari, mangu vido onlarining mudhish sarosimasi hukmron edi: stol va tokchalar doridan bo`shagan idishchalarga to`lgan, chor tomonda shoshilinchda oyoq bilan toptalgan yoki pollatta

o`rnida ishlatilgan sochiqlar yoyilib yotardi. Kursi va o`rindiqlar duch kelgan joyda turar, hatto buyumlar ham bu xonani tashlab qochishga urinayotgandek edi. Ajal shu yaqin oraga berkinib olib, fursat kutardi.

Opa-singillar qismati g`oyat ta`sirli bo`lib, ularning taqdir hikoyasi butun okrugga ma`lum edi. Bu hikoyani tinglaganlardan hech biri quvonganidan ko`z yoshi to`kmagan.

Gap shundaki, opa-singillarning kattasi Syuzanna qachonlardir bir yigitga ko`ngil bergan, yigit ham uni qattiq sevgan. Ularni unashtirib qo`yishgan. Hatto to`y kuni ham tayin qilingan. Biroq bo`lajak kuyov Anri de Samper to`satdan qazo qilgan.

Bundan chuqur anduhga botgan qiz hech qachon turmushga chiqmaslikka qasam ichgan. U so`zida turdi. Bevalar libosini egniga ildi-yu, qaytib yechmadi.

Kunlarning birida uning kichik singlisi, o`n ikki yashar Margarita o`zini opasining quchog`iga otib, dedi:

– Opajon, men sening baxtsiz bo`lishingni, butun umr yig`lab o`tishingni xohlamayman. Hech qachon, eshityapsanmi, hech qachon seni tashlab ketmayman. Men ham sira turmushga chiqmayman. Hamisha yoningda qolaman, hamisha...

Uning bolalarcha sadoqatidan qattiq hayajonga tushgan Syuzanna, singlisini mehr bilan o`pib qo`ydi, lekin so`zlariga unchalik ishonmadi.

Biroq singlisi ham ahdida turdi. Ota-onasining pand-nasihatlarini, hattoki yolvorishlari ham unga kor qilmadi – qiz turmushga chiqishdan bosh tortdi. U juda kelishgan qiz bo`lib, ko`p yigitlardan dil izhori eshitar, lekin o`ylab o`tirmay, hammasini rad etardi. Xullas, Margarita bir umr opasining yonida qoldi.

Ular umr bo`yi birga, sira ayrilmay yashadilar. Bu ikkisi mustahkam rishtalar bilan bog`langan taqdir yo`lidan yonma-yon ketib borishar, lekin Margarita hamisha qayg`uli ko`rinardi. Uning qiyofasi opasidan ko`ra jahldor va tashvishli tuyular, buyuk fidoyiligi uni quvvatdan butunlay mahrum etganga o`xshardi. U juda tez keksaydi. O`ttiz yoshidayoq sochlari oqarib ketdi. Margarita bot-bot og`rib qolar, go`yo sirli bir xastalik uni ich-ichidan yemirib borayotgandek edi.

Endi bo`lsa, u birinchi bo`lib ajalga ro`para kelmoqda. U naq yigirma to`rt soat tildan qoldi. Nihoyat tongotar pallasi, so`zlashga kuch topdi:

– Ruhoniyga odam jo`nating, kunim bitganga o`xshaydi.

Ayol bezgak tutgandek qaltiragan ko`yi chalqancha yotar, yuzi qo`rqinchli edi. Lablari tinimsiz pichirlar, go`yo yuragining tub-tubidan qandaydir dahshatli so`zlar ko`chib ulgurgan-u, hozircha ularni aytishga darmoni yetmayotgandek, atrofga olazarak boqardi...

Opasi to`shak chetiga peshonasini bosganicha, alamli ko`z yosh to`kar va tinimsiz bitta jumlani qaytarar edi:

– Margo, jigarbandim, go`dakkinam mening!

U singlisini hamisha “go`dagim” deb atar, singlisi esa unga har doim “opajon”deb murojaat qilardi.

Zinapoyada qadam tovushlari eshitildi. Eshik ochilib, avval xizmatchi bola, ortidan keng va uzun kiyimdagi keksa ruhoniy ko`rindi. Jon berayotgan ayol ularni ko`rgach, shoshilinch ravishda boshini ko`tardi. Og`zini ming mashaqqat bilan ochib, tirnoqlari bilan choyshabni yirtmoqchi bo`lgandek timdalar ekan, bir nechta so`zni pichirladi.

Abbat Simon unga yaqinlashdi. Uni bag`riga bosib, peshonasidan o`pdi va mehribonlik bilan dedi:

– Tangri sizni mag`firat qiladi, bo`tam. Bardam bo`ling. Vaqt-soatingiz yetdi. Tavba qiling.

Margaritani shunday kuchli qaltiroq tutdiki, butun karavot silkina boshladi. U pichirladi:

– Opajon, o`tir va meni eshit.

Ruhoniy hanuz to`shak yonida cho`kkalab o`tirgan Syuzannaga yuzlandi. Uni turg`izib, kursiga o`tqazdi. So`ng har ikkisining qo`lidan tutib, xitob qildi:

– Yaratgan Egam! O`zing ularga kuch ber! Ulardan marhamatingni darig` tutma!

Nihoyat Margarita tilga kirdi. U xirqiroq ovozda, uzuq-yuluq so`zlar, hayot shami lahza sayin so`nib borardi.

– Kechir, kechir, opajonim, meni kechir! Oh, butun umr shu fursat yetib kelishidan qanchalik qo`rqib yashaganimni bilsang edi...

Syuzanna yig`i aralash g`o`ldiradi:

– Seni nima uchun kechirishim kerak, go`dakkinam? Axir sen men uchun hamma narsangni qurbon qilding. Sen farishtasan...

– Jim bo`l, hech narsa dema. Menga imkon ber, so`zimni bo`lma!.. Toki hammasini aytib olishga ulguray... Eshit... Sen Anrini eslaysanmi?

Syuzanna cho`chib, singlisiga qaradi. U esa to`xtovsiz gapirardi:

– So`zlarimni diqqat bilan eshitsang, hammasini tushunasan. O`shanda men endigina o`n ikki yoshga to`luvdim. Atigi o`n ikki yoshda edim... Sen u paytlarni yaxshi eslaysan, to`g`rimi? Men juda tantiq edim, xayolimga nima kelsa – shuni qilardim! Meni qanday erkalatganlari yodingdadir... Eshit... U ilk bor uyimizga kelganida, oyog`ida yaltiroq etigi bor edi. Oti bilan darvozadan kirib kelarkan, ust-boshi uchun uzr so`radi va bu yerga otamga bir xabarni yetkazish uchun kelganini aytdi. Sen bularni kechagidek eslaysan, to`g`rimi? To`xta, gapirma... Meni eshit... O`sha fursatda unga shunday mahliyo bo`lib qoldimki, u otam bilan gaplashib olgunicha, mehmonxonaning bir burchagida toshdek qotib turaverdim. Bolalar – juda g`alati, qo`rqinchli mavjudotlar... Oh, o`sha kezlarda u haqda tinimsiz xayol surganimni bilsayding...

U uyimizga tez-tez kelishni odat qildi. Men har safar unga ko`zlarimni katta ochib, butun qalbm bilan boqar edim. O`z yoshimga nisbatan ancha ulg`ayib qolgan, boz ustiga tengdoshlarimga nisbatan ancha ayyor ham edim. Anri uyimizda tez-tez mehmon bo`la boshladi. Men esa faqat uni o`ylardim. O`zimga-o`zim: “Anri... Anri de Samper” deb pichirlardim.

Ko`p o`tmay u senga uylanmoqchi ekanligini aytishdi. Oh, opajonim, bu yangilikni eshitib, shunchalar qayg`uga botdimki, uch kun uxlamadim, tuni bilan yig`lab chiqdim... U esa har kuni nonushtadan so`ng uyimizga kirib kelardi. Yodingdami? Sen har safar u kelganida, un, yog` va sut qo`shib tayyorlanadigan shirin kulcha pishirarding. Bu shirinlik unga juda yoqardi. O`sha kulchalarni men ham tayyorlay olardim! Kerak bo`lganida hatto hozir ham pishirib berishim mumkin! Anri kulchalarni butunligicha og`ziga solib, sharobdan ho`plarkan, “Ajoyib!” deb xitob qilardi. Bu so`zni u qanday talaffuz qilishini eslaysanmi?

O'sha damda rashk olovida qovrilardim!.. To'ylaring bo'ladigan kun esa tobora yaqinlashib kelardi. To'ygacha atigi ikki hafta vaqt qoldi. Men butunlay esimni yo'qotib qo'ydim. O'z-o'zimga: "U Syuzannaga uylanmaydi. Ulg'ayganimdan keyin faqat mengagina uylanadi. Chunki men umrim bo'yi hech kimni unga ko'ngil berganchalik qattiq seva olmayman", der edim. To'ygacha o'n kun qolgan edi. Oqshom chog'i sen u bilan qal'a atrofiga, oy nuri ostida sayr qilding. O'sha yerda... archa tagida... baland archa tagida u seni mahkam quchdi va uzoq-uzoq bo'sa oldi... Sen buni eslaysan, to'g'rimi? Shubhasiz, bu sening ilk bo'sang edi... Shunday... Chunki mehmonxonaga qaytganingda ranging bo'zdek oqarib ketgandi...

Men bog'da, butalar ortida turib, sizlarni ko'rdim. Ko'rdim-u, aqldan ozay dedim. Qo'limdan kelganida, ikkovingizni ham o'ldirardim.

O'zimga-o'zim: "U hech qachon Syuzannaga uylanmaydi. U hech kim bilan turmush qurmaydi. Men bunday baxtsizlikka chiday olmayman", der edim. Kutilmaganda yuragimda unga nisbatan kuchli nafrat uyg'ondi.

Bilasanmi, men nima qildim?.. Eshit... Men bog'bon amaki daydi itlar uchun zaharli bo'g'irsoq tayyorlaganini ko'ruvdim. U shishani tosh bilan maydalar, so'ng shisha kukunini bo'g'irsoqqa solinadigan qiyma bilan yaxshilab aralashtirardi.

Oyimning dori shishasini oldim-da, bolg'acha bilan maydaladim. Keyin shisha kukunini cho'ntagimga solib qo'ydim. Bu qoyilmaqom kukun edi. Ertasi kuni shirin kulcha tayyorlayotgan paytingda, payt poylab, har bir kulcha ichiga shisha kukunidan solib qo'ydim. Anri kulchadan uch dona yedi. O'zim ham bir donasini yeb oldim. Qolgan oltita kulchani esa hovuzga tashlab yubordim... Uch kun o'tib, ikkita oqqushimiz o'lib qolgani yodingdami? Qo'y, gapirma... So'zlarimni eshit... U o'ldi... Sen buni yaxshi bilasan... Biroq bu hali hech narsa emas... Eng dahshatlisi shundan keyin boshlandi... Eshit...

Hayotim, mening butun hayotim azob ichida kechdi. Men o'zimga: "Opamni hech qachon tashlab ketmayman va o'limim oldidan unga hammasini aytaman", deb so'z berdim. Ha... O'shandan beri shu daqiqalar, qarshingda haqiqatni tan olishim kerak bo'lgan dahshatli daqiqalar haqida o'ylayman. Mening kunim bitdi. Shunchalik qo'rqib ketyapmanki! Oh!.. Opajonim!

Sahar chog`i va quyosh botayotgan vaqtda ham, kunduzi va hatto tunda ham faqat bir narsani o`ylardim... “Vahti kelib, gunohlarimni tan olaman”. Men uzoq kutdim. Bilasanmi, bu juda og`ir qiynoq. Mana, senga hammasini aytib berdim... Yo`q, gapirma! Bir og`iz so`z aytma... Endi men dahshatga tushyapman... Shunchalik dahshatga tushyapmanki... Narigi dunyoda uni ko`radigan bo`lsam, bir o`ylab ko`rgin-a, uni birinchi bo`lib men ko`raman. Lekin u bilan yuzma-yuz kelishga jur`atim yetmaydi! Biroq sharoit shuni taqozo etmoqda. Vaqt-soatim yetganga o`xshaydi. Kechir meni! Meni kechirmasingdan, Anrining qoshiga borolmayman. Janob kyure, unga ayting, gunohimdan o`tsin... Ayting, o`tinaman sizdan... U meni kechirmasa, jon berolmayman...

U tinchib qoldi. Og`ir-og`ir nafas olganicha, tirnoqlari bilan choyshabni tirmalay boshladi.

Syuzanna yuzini kafti bilan berkitib, harakatsiz o`tirardi. U o`sha – bir umr sevib, ardoqlab yashashi mumkin bo`lgan inson haqida o`ylardi. Ikkovlari qanday baxtli hayot kechirishlari mumkin edi-ya! U qallig`ini yana ko`rdi. Allaqachon g`oyib bo`lgan va hech qachon ortga qaytmaydigan o`tmishga juda yaqindan nazar tashladi. Oh, qadrdon marhumlar! Ular qalbimizni qanchalar chuqur jarohatlashadi-ya! Uning ilk va yagona bo`sasi-chi? Syuzanna uni qalbining tub-tubida asrab yashadi. Undan so`ng boshqa hech nimani bir umrga eslab qolmadi.

Ruhoniy to`satdan qaddini ko`tardi va titroq ovoz bilan qichqirib yubordi:

– Syuzanna xonim! Singlingiz jon berayapti.

Syuzanna sho`rtang ko`z yoshlaridan ho`l bo`lgan yuzidan qo`llarini olib, singlisi tomon otildi. Uning peshonasidan qattiq o`pib, pichirladi:

– Seni kechiraman, go`dakkinam. Kechiraman...

Yuqorida keltirilgan hikoya Mopassanning “Tavba” nomli hikoyasi edi. Ba`zi bir tarjimonlar bu hikoyani “Tazaru” nomi ostida tarjima qilishgan. Xo`sh, yozuvchi ushbu hikoya orqali kitobxonga nima demoqchi? “So`nggi pushaymon o`zingga dushmani” maqoli bu hikoyaga judayam mos keladi. Inson o`zi bilmagan holda qandaydir xato qilib qo`yadi-yu, keyin uning jabrini nafaqat bir o`zi, balki, atrofida-gilar ham tortishadi. “Tavba” hikoyasi qahramoni Margarita de Terel

manashunday bir mudhish xato qilib qo'yadi. Uning Syuzanna ismli opasi bo'ladi. Syuzanna Anri de Samper ismli yigitga unashtiriladi. Margarita esa yosh bo'lishiga qaramay Anri de Samporni sevib qoladi. Opasining to'yiga hech qancha vaqt qolmagan bo'lsada, Margarita bo'lajak pochchasi Anri de Samporni shisha bo'laklari solingan kulcha berib joniga qasd qiladi. Ammo bu qilgan ishini umri davomida yashirib yashaydi. Opasiga qilgan bu yomonligidan o'zi ham uyalib, vijdoni qiynalib hech kimga turmushga chiqmaydi. Syuzanna ham hayotini boshqa hech kim bilan bog'lamaydi. Yillar o'tgani sayin bu g'am Margaritaning ichini bo'lsada, ammo 60 yoshlilarga o'xshamas edi. Uning Yoshi yetmishlardan ham katta ko'rinardi. Chunki vijdon azobi uning ich etini tinmay yedirar edi. U to'shakka mixlanib qoldi. Endi tuzalmasligini bilar edi. Qilgan xatosini opasiga birma-bir aytib berdi. Syuzanna juda aqlli va mehribon opa edi. U singlisini darrov kechirdi. Yozuvchi ushbu hikoya orqali hayotda uchrab turadigan ko'rolmaslik, qizg'anchilik, shoshqloqlik, qo'rqqoqlik; mehribonlik, kechirimlilik kabi illatlar va fazilatlarini ko'rsatib beradi. Margaritaning ko'rolmasligi va qizg'anchiligi uni shu ishni qilishga majbur qildi. Uning psixologiyasi ham o'zgacha. Uning ruhida qandaydir qo'rqqoqlik bor. Agar Margarita o'ziga ishongan, keng dunyoqarashga ega bo'lgan qiz bo'lganida bu ishni qilmas edi. Mana oxir oqibatda o'z yomonligi uning o'z boshiga yetdi. Syuzanna esa juda ham sadoqatli va mehribon qiz. U singlisining shuncha qilgan yomonliklariga, hayotining barbod bo'lganiga ko'z yumib Margaritani kechirdi. Bu haqiqiy mardlik. Mopassan bu novella orqli insonlarga ibrat maktabini ko'rsatib berdi. Har kim ham hayotda adashishi mumkin. Ammo har qanday ishni yeti marta o'lchab bir kessak balki kamroq xato qilarmiz. Hikoyaning tub mohiyatida yana "har kim birovga chuqur qazisa, o'ziga chuqurga o'zi tushadi" mazmunidagi fikr ham mujassam.

Mopassanning hikoyalarida ko'pincha ruhiy tushkunlik, psixologik holatlar va o'lim tasvirlari keng qo'llangan. "Tavba" hikoyasining so'nggida ham Margarita vafot etadi. Margarita hikoyaning boshidan oxirigacha ruhiy tushkun holatda tasvirlanadi. Ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan bu holatlar Mopassanning shaxsiy hayoti bilan bog'lanadi.

Mopassan ijodi uchun turmushni obyektiv tasvirlash, tilining sodda (tabiiy) va ta'sirchanligi, "hayotni o'zidanda ishonchli tasvirlash", qahramonlar obrazini ularning xarakter va his-tuyg'ulari orqali yaratishga intilish xarakterli. "O'limdek kuchli", "Bizning qalb" romanlarida esa psixologik ruh kuchli.

Mana, qachonlardir sodir bo'lgan, o'zim guvoh bo'lgan va nimagadir hech qachon yodimdan chiqmaydigan g'amgin xotiralarimdan biri. O'sha kunlardan beri qanchalik g'amgin, hayajonli, qo'rqinchli damlarni boshimdan kechirmadim. Lekin baribir, o'n-o'n ikki yoshlarimda men bilgan Maymoq xolaning qiyofasi biror kun ko'z oldimdan ketmasligiga o'zim ham hayron qolaman.

U dushanba kunlari biznikiga kelib kiyim-kechak, ko'rpa-yostiqlarni yamab yuradigan tikuvchi kampir edi. Ota-onalarim o'sha paytlar dabdabali ko'rinishi tufayli «qasr» deb ataladigan qishloq uylaridan birida yashashardi. Sirasini aytganda, bu «qasr» faqat tomi baland qurilgan, atrofi to'rt-besh ferma bilan qurshalgan oddiy, qadimiy binolardan biri edi. Qo'rg'onchamizdan yuz metrilar narida bir paytlar qizil g'ishtdan qurilgan, vaqt o'tishi bilan xiralashib qolgan cherkov binosi atrofida kattakon qishloq joylashgandi.

Har dushanba kuni ertalab soat olti, olti yarim orasida Maymoq xola biznikiga kelib, to'ppa-to'g'ri cherdakdagi kirxonaga ko'tarilar va ishga kirishardi. U baland bo'yli, oriqdan kelgan, soqolli, to'g'rirog'i, butun yuzini hayron qoldirar darajada soqolsimon mo'ylar qoplab olgan ayol edi. Xuddi qandaydir aqldan ozgan kishi ayol kiyimidagi bu soldat kampirning yuzlariga ataylab yovvoyi jangal butalarini qadab chiqqanday tasavvur uyg'otardi. Bunday mo'ylar uning burnining ustida ham, ostida ham, atrofida ham, yanoqlari-yu iyaklarida ham betartib o'sib yotardi. Qoshlari ertaklardagidek qalin va uzun, biroq mutloq oqarib ketgan va yanglishib shu yerga qo'ndirilgan ho'rpaygan mo'ylovga o'xshab ketardi. U oqsoqlanib yurardi. Biroq oqsoqlanishi boshqa oqsoqlarnikiga sirayam o'xshamasdi. U xuddi langar tashlab turgan, dengiz to'lqinida chayqalayotgan kema misol oqsoqlanardi. U sog' oyog'i bilan qadam tashlaganida, uning suyakdor qomati xuddi ulkan to'lqin ustiga ko'tarilayotgan yelkanli kemani eslatar, navbatdagi qadamini tashlaganida xuddi jarlikka qulab tushayotgandek ko'rinardi. Shunday qilib, uning yurish tarzi menga

dengizda bo`ron payti suzib yurgan kemani eslatardi. Uning hech qachon boshidan tushmaydigan oppoq cheptsasi, orqasidan osilib turgan lentalari menga goh shimoldan janubga, goh janubdan shimolga qarab ufqni kesib o`tayotgan kema yelkanlari bo`lib ko`rinardi.

Men Maymoq xolani juda qadrlardim. Dushanba kunlari uyqudan turishim bilanoq oyoqlarini grelka ustiga qo`yib allaqachon yamoqchilikka kirishgan Maymoq xolamning yoniga, kirxona tomon chopardim. Kirib borishim bilanoq u tom ostida joylashgan bahaybat bu kirxonada shamollab qolmasligim uchun meni ham grelka ustiga o`tqazib qo`yardi.

- Bu sening tomog`ingdagi qoningni tortib olib, oyoqlaringni isitadi — derdi u meni ishontirib.

Keyin u ilgaksimon barmoqlarini chaqqon qimirlatib, tikish jarayonida menga turli-tuman voqealarni hikoya qila boshlardi. Uning qalin shishali ko`zoynaklari ostidagi ko`zlari (qarilikdan uning ko`zlari yaxshi ko`rmay qolgandi) menga juda ham katta, g`ayritabiiy moviy va qo`shaloq bo`lib ko`rinardi.

Go`dak qalbimni hayajonga soladigan uning hikoyalaridan u ham taqdir qisib qo`ygan ko`plab ayollar singari saxiy va olijanob qalbli ekanligini his qilardim. U o`z qismatiga soddadillik bilan butunlay ko`nikib ketgan ayollar xilidan edi. U menga qishloqda ro`y berayotgan voqealar, og`ilxonadan qochib ketib, bir kun ertalab Prosper Merening shamol tegirmonining parraklariga jiddiy ko`rinishda tikilib turgan sigir haqida gapirib berardi. Keyin cherkov qo`ng`iroqxonasiga tuxum qo`ygan tovuq haqida gapirib, hozirgacha bu tovuq u yerga qanday qilib chiqqanligining siri ochilmaganligini, Jan-Jan Pilas yomg`irda ho`l bo`lib qolgan ishtonini quritish uchun dorga osib qo`yganida, bir yo`lovchi uni o`marib ketganini va uning ko`ppagi o`g`rini qishloqdan o`n legacha quvib borib, ishtonini qaytarib olib kelganliklarini so`zlardi. U menga bunday oddiygina voqealarni shunchalik qiziqarli qilib hikoya qilib berardiki, ular tasavvurimda sirli va ulug`vor bir dramaning unutilmas sahnalaridek ko`z oldimda jonlanar yoki har kuni onam menga o`qib beradigan buyuk yozuvchining mohirona to`qilgan sarguzasht qissasidek tuyulardi.

Dushanba kunlaridan birida ertalab yana Maymoq xolamning hikoyalarini maroq bilan tingladim. Keyin xizmatkorimiz bilan Nuarpre fermasining orqasidagi Alle yong'oqzoriga bordik. U yoqdan qaytib kelib yana kirxonaga, Maymoq xolamning yoniga chiqishga qaror qildim. Bu voqea hozir xuddi kecha sodir bo'lgandek hamon ko'z oldimdan ketmaydi.

Men kirxona eshigini ochib tikuvchi kampir qo'llarini yozganicha bir qo'lida igna va ip, ikkinchisida mening ko'ylagimni tutganicha stul oldida ag'nab yotganini ko'rdim. Uning ko'k paypoqli bir oyog'i, menimcha sog' oyog'i bo'lsa kerak, stul ostiga kirib qolgan, ko'zoynagi devor tomonga otilib ketgan va o'sha yerda yaltirab ko'rinib turardi.

Men allaqanday qo'rquvni his qilib, jon-jahdim bilan qichqirib yubordim va tashqariga otildim. Bir zumda hamma chopib keldi va bir necha daqiqa o'tgach, Maymoq xolam olamdan ko'z yumganligi ma'lum bo'ldi.

Bu gapni eshitib go'dak qalbimni qamrab olgan chuqur, dahshatli qayg'uni ifodalash uchun haligacha so'z topa olmayman. Men oyoqlarimni bazo'r sudraganimcha zinapoyadan tushdim. Uyga kirib qorong'u burchakdagi bahaybat qadimiy orom kursiga o'zimni tashlab, tizzalab o'tirib olganimcha, yig'lay boshladim. Aftidan, men u yerda o'tirib uzoq yig'labman, chunki tez orada qorong'ulik tushganini sezib qoldim. To'satdan xonaga kimlardir chiroq olib kirishdi, biroq meni sezishmadi. Ularning ovozlari bular ota-onam va do'xtir ekanligini sezdim. O'sha zahotiyoq chaqirilgan do'xtir tikuvchi kampirning o'limi sabablarini tushuntirardi. Uning gaplaridan, to'g'risi, hech baloni tushunmadim. Keyin do'ktirni bir qadah likyor ichishga taklif qilishdi. U o'tirib olib yana Maymoq xolam haqida gapira boshladi. Do'xtir aytib bergan tafsilot to umrimning oxirigacha xotiramga mixlanib qolgan bo'lsa kerak. Nazarimda hozir ham uni so'zma-so'z takrorlab aytib berishim mumkin. — Eh bechoragina! — gap boshladi do'xtir. — U mening bu yerga kelganimdagi birinchi mijozim edi. Chunki men bu qishloqqa ishga kelgan kunim uning oyog'i singan edi. Dilijondan tushib, qo'llarimni yuvishga ham ulgurmasimdan meni chaqirib kelishdi. Uning oyog'i singan va bu juda-juda xavfli edi! O'sha vaqtlar u endigina o'n sakkiz yoshga to'lgan va juda yoqimli, haqiqiy sohibjaml qiz edi! Bunga hozir hatto

ishongingiz ham kelmaydi. Uning oyog`i nima sababli singaniga kelsak, bu sirni hech kimga, hech qachon aytmaganman. Buni mendan tashqari yana bir kishi biladi. Biroq u allaqachon bu yerlardan ketib qolgan. Madomiki, kampir endi bu olamdan ko`z yumgan ekan, uning cho`loq bo`lib qolishining sirini aytib bera qolay.

O`sha paytlar bu qishloqqa harbiylar kabi qad-qomati kelishgan chiroyli bir yigit o`qituvchining yordamchisi bo`lib ishga kelgandi. Qishloqning barcha qizlari uni deb aqlu-hushlarini yo`qotishgan, yigit o`zini ulardan birortasini nazar-pisand qilmagandek tutardi. Bunga sabab menimcha uyg`onib, doim chap oyog`i bilan turadigan qishloq o`qituvchisi Grabyu amakining qattiqqo`lligidan qo`rqqanligi bo`lsa kerak. O`sha kunlarning birida Grabyu amaki bugun siznikida olamdan o`tgan go`zal Gortenziyani, ya`ni keyinchalik Maymoq laqabini olgan qizni tikuv-chatuv ishlarini bajartirish uchun uyiga taklif qiladi. O`qituvchining yordamchisi go`zal qizga mulozamat qila boshlaydi va albatta bunday qo`l yetmas yigitning nazar e`tibori, shuncha qizlar ichidan o`zini tanlashi qiz bechorani quvontirib yuboradi. Qisqasi, qiz uni sevib qoladi va kunlardan bir kun yigit ish tugagach, kechqurun maktab cherdagi ustida ilk uchrashuvga chiqishga uning roziligini oladi.

Kechqurun qiz o`zini uyiga ketayotgan qilib ko`rsatib, zinapoyadan pastga tushish o`rniga cherdakka chiqadi va o`z sevgilisini kutib poxol-pichanlar orasiga yashirinadi. Tez orada yigit ham cherdakka chiqib Kechqurun qiz o`zini uyiga ketayotgan qilib ko`rsatib, zinapoyadan pastga tushish o`rniga cherdakka chiqadi va o`z sevgilisini kutib poxol-pichanlar orasiga yashirinadi. Tez orada yigit ham cherdakka chiqib keladi. U endigina o`z qalbidagi hislarni to`kib sola boshlagan payt, cherdak eshigi ochilib, ostonada qahri qattiq maktab o`qituvchisi paydo bo`ladi.

— Bu yerda nima qilayapsiz, Sijisber? — deydi u.

— Poxol ustida yotib biroz dam olmoqchiydim, janob Grabyu, — deydi qo`lga tushganligini his qilgan yosh o`qituvchi butunlay o`zini yo`qotib.

Cherdak juda katta, keng va qorong`i edi.

— Boring, yashirining, tezroq yashirining, aksincha meni ishdan haydashadi, — deydi yigit shivirlab, qo`rqib ketgan qizni ichkariga itarib.

— Demak, bu yerda yolg`iz o`zingizmi? — so`raydi o`qituvchi, shivir-shivirni ilg`ab.

— Ha, janob Grabyu, yolg`izman.

— Yo`q, yolg`iz emassiz, kim bilandir shivirlashdingiz!

— Gapim rost, janob Grabyu, bu yerda bir o`zimman.

— Buni hozir tekshirib ko`ramiz, — e`tiroz bildiribdi o`qituvchi va eshikni tashqarisidan qulflab, sham olib kelish uchun pastga tushib ketipti. Shunda quyon yurak yigit, bundaylar juda ko`p uchrab turadi, butunlay es-hushini yo`qotib qo`yibdi.

— Tezroq yashirinsangiz-chi, sizni bu yerdan topa olmasliklari uchun butunlay qorangizni o`chiring. Sizni deb bir umrga burda nonimdan ayrilib qolaman. Siz.. siz mening martabamni yo`qqa chiqarasiz. Tezroq yo`q bo`ling, — debdi u butunlay qahrga minib.

Bu payt eshik qulfiga kalit solinayotganligi eshitilibdi. Gortenziya esa ko`cha tomonga qaragan tuynuk darcha tomonga chopib boribdi.

— U ketganidan keyin ko`chaga chiqib menga yordam bering, — debdi u sekin va qat`iy ovozda.

Keyin tezlik bilan darchani ochib, o`zini ko`chaga otibdi.

Grabyu amaki cherdakda yordamchisidan boshqa hech kimni topa olmay, hayron bo`lganicha chiqib ketibdi.

Oradan chorak soatlar o`tgach, huzurimga Sijisber yugurib kelib barcha gaplarni aytib berdi. Bechora qiz devor yonida yotar, o`rnidan tura olmasdi. Axir u baland cherdakdan yiqilib tushgandi-da!

Yomg`ir shivalab yog`ardi. Sho`rlik qizni uyimga olib keldim. Uning o`ng oyog`i uch joyidan singan, suyak parchalari oyoq terisini yorib chiqib ketgandi. U bir og`iz ham zorlanmas, faqat hayratlanarli shikastnafaslik bilan «o`zimdan bo`ldi, o`zimdan bo`ldi!» deya takrorlardi xolos.

Men uning qarindoshlarini chaqirib, qizga rahmim kelganidan uni otlari olib qochgan ekipaj uyim yonida urib ketdi, deb yolg`on to`qidim. Menga ishonishdi va jandarmilar bir oy davomida baxtsiz hodisaga sababchi bo`lgan ekipaj haydovchisini behuda qidirishdi.

Boʻlgan gap shu. Bu ayol oliy darajada tarixiy jasorat koʻrsata oladigan qahramonlar xilidan ekanligiga ishonchim komil. Bu uning umridagi yagona va oxirgi muhabbati edi. U bokiraligicha olamdan koʻz yumdi. Bu jafokash ayol, xudoning eng moʻmin bandasi va oʻz sadoqatining begunoh qurboni boʻldi. U bilan cheksiz faxrlanaman, aks holda umrimda hech kimga aytmagan bu sirni sizga aytib bermagan boʻlardim. Nima uchunligini oʻzingiz tushunasiz. Doʻxtir gapini tugatdi. Onam unsiz yigʻlardi. Otam ham bir narsalar degandek boʻldi, keyin hammasi chiqib ketishdi.

Men hamon tizzalab oromkursi ustida oʻtirganimcha hiqqillab yigʻlardim. Qulogʻimga zinapoya tomondan ogʻir qadam va turtinish tovushlari eshitildi. Aftidan Maymoq xolamning jasadini olib tushishmoqda edilar...

Mopassanning oilasi XIX asr oʻrtalarida Lorendan koʻchib kelib, Quyi Senada joylashadilar. Otasi Gyustav de Mopassan 1846 yilda oliy tabaqa vakilasi hisoblanmish Lora de Puatvin bilan oila quradi. Ular nikohidan ikki oʻgʻil dunyoga keladi. Lora kelajakda ikkala oʻgʻlining hayotida oʻz ijobiy taʼsirini koʻrsatgan buyuk yozuvchi Gyustav Flober bilan doʻstlik rishtalarini bogʻlagan edi. Lora adabiyot olamidan yaxshi xabardor ayol boʻlib, klassika, xususan, Shekspir ijodiga mehri oʻzgacha edi. 1854 yilda oila Gavr yaqinidagi Blan de Grenvil-Imovil qalʼasiga joylashadilar. 1856 yil Gining ukasi Erve dunyoga keladi. Onasi Lora 1860 yilda yengil hayotning ortidan quvadigan eri Gyustav bilan ajrim imzolaydi va ikkala oʻgʻliga yolgʻiz oʻzi gʻamxoʻrlik qiladi.

Bolaligining qolgan yillarini Etretadagi dengiz qishlogʻida qad rostlagan “Vergilar” pansionida oʻtkazadi va aynan oʻzi yashagan atrof-muhit sabab tabiatga muhabbat ruhida oʻsadi.

Boʻlajak adib 1869 yili adabiyot yoʻnalishida bakalavrlilikni tamomlab, onasi hamda Floberning maslahatiga koʻra, huquq sohasida oʻqish uchun Parijga joʻnab ketadi. Ammo toʻsatdan boshlangan Franko-Prussiya urushi uning rejalarini tubdan oʻzgarishiga sabab boʻladi. 1870 yilda armiyaga koʻngilli boʻlib yozilgan adib xizmatni harbiy boʻlim taʼminotida boshlab, keyinchalik artilleriya safiga oʻtadi va

normand qo'shinining germanlarga qarshi harakatida qatnashadi. Urushdan keyin xizmatni tugatish uchun o'rniga odam yollab, Normandiyani tark etadi.

Mopassan o'n yil davomida Parijda Dengiz floti va Xalq ta'limi vazirligida xizmatchi vazifasida ishlaydi. U azobli kechalarini tinimsiz adabiy izlanishlar bilan o'tkazadi. 1875 yil fevral oyida o'zining birinchi ertagi "Kesilgan qo'l" ni Jozef Prunye taxallusi ostida "Almanax" jurnalida nashr qildiradi.

Shu vaqt oralig'ida sog'lig'idan tashvishlangan adib tibbiy ko'rikdan o'tadi. Tahlil natijalari dahshatli kasallik – zaxmni ko'rsatardi. Bu kasallik adibning o'limiga qadar vujudini kemirgan.

U buyuk yozuvchi Flober rahnamoligi hamda himoyasi ostida adabiyot va jurnalistikaga kirib keladi. Ijodiy faoliyatini "Galliya", "Parij Sadosi", "Jil Bla", "Figaro" gazetalarida maqolalar e'lon qilish bilan boshlaydi. Keyinchalik bo'sh vaqtlarida romanlar va novellalar yozadi. Floberning ko'magi ostida 1879 yili birinchi kitobi "Qadimgi davrlar tarixi" ning alohida 100 sahifasini nashr qildiradi.

Mopassan Emil Zolya bilan aloqa o'rnatgan vaqtda, ya'ni 1880-yili naturalist yozuvchilar uyushmasi to'plamida o'zining ilk novellasi "Do'ndiq" bilan qatnashadi va bu asar tezda muvaffaqiyat qozonadi. Floberning fikricha, bu novella "o'lmas shoh asar" deya baholanadi. Ammo xuddi o'sha yili Floberning kutilmaganda g'oyib bo'lishi sabab yosh adib o'z taqdiri qarshisida yolg'iz qoladi.

1880–1890-yillar oralig'idagi 10 yillik adib hayotidagi eng sermahsul davr bo'ldi: bu davr mobaynida adib 6 ta roman, 300 dan ortiq novella va ko'plab sarguzasht hikoyalarni nashr qildiradi.

1881-yil adib o'zining ilk novellalar to'plamini "Telye uyi" nomi ostida nashr qildirdi va yaqin ikki yil ichida uning ikkinchi nashri ham chop etildi. 1883- yilda Mopassan 1877- yilda boshlagan "Hayot" romanini yozib tugatdi. Bu roman bir yilda 25 ming nusxada sotuvga chiqariladi. Roman to'g'risida Lev Tolstoy shunday yozadi: "Bu roman fransuz adabiyotidagi "Xo'rlanganlar" romanidan keyin ikkinchi shoh asardir".

1884- yil oktyabr oyida adib "Azizim" nomli mashhur romanini yozib tugatadi. U shungacha yaratgan barcha novellalaridagi rang-barang kuzatishlarini aynan "Azizim" romanida jamlagan. Bu asar to'g'risida Mopassanning o'zi shunday deydi: "Azizim –

bu men!” 1887–1888 yillar oralig`ida yozuvchi navbatdagi “Pyer va Jan” romanini yaratadi.

Mopassan sog`ligi zaifligiga qaramay, Jazoir, Italiya, Angliya, Sitsiliya bo`ylab uzoq muddatli sayohatlar qiladi, gazetalar uchun yangidan-yangi reportajlar tayyorlaydi. Talvasali hayoti davomida vujudini sekin-asta qamrab olayotgan kasallikni unutish uchun kengliklarga ehtiyoj sezadi.

So`nggi yillar tamomila yolg`iz hayotga beriladi. U bora-bora o`zini ham jismonan, ham ruhan yomon his qilar, maslahatlar, muolajalarga qaramasdan ahvoli yengillashmasdi. Shu sababdanmi, adib eng so`nggi kuchini ham asar yozishga sarfladi. 1889-yilda “Kuch” nomli asar nashrdan chiqdi. Shu yil may oyida adib “Bizning qalb” nomli so`nggi asarini yozishga kirishadi. Kiborlar jamiyatining axloqiy masalalari aks etgan bu asar 1890-yil may va iyun oylarida “Ikki dunyo” jurnalida nashr qilindi. Oradan bir oy o`tib, 1890-yilning avgust oyida “Begona qalb” nomli asar ustida ish boshlaydi. 1891-yilda esa “Angilus” nomli yana bir asarni yozishga kirishadi. Ammo har ikki asarni ham tugata olmaydi. 31-dekabrda doktor Kazalisga yozilgan xat Mopassanning eng so`nggi vidolashuv xati bo`lib qoldi.

1891-yilda Mopassan o`zining adabiyotdagi faoliyati to`g`risida Joze Mariya de Eridiyaga shunday yozgan edi: “Men adabiyotga yashindek kirib keldim va uni momaqalldiroq singari tark etaman”.

Mopassan “Qobiliyat bu cheksiz bardosh demakdir” deb yozgan edi. Adib yaratgan asarlarning mavzulari hayotidagi kechmishlari, rang-barang tajribalar bilan chambarchas bog`liq. Mopassanning ona yurti Normandiya o`zining takrorlanmas manzarasi bilan uning asarlarida muhim o`rin tutadi (“Hayot”dagi qishloq, dengiz, shahar ko`rinishlari va uning aholisi – dehqonlar, zamindorlar yoxud kichik zodagonlar). Ammo Normandiya yozuvchi asarlarida tasvirlangan yagona joy emas, xususan, Parij ham “Azizim” romanida voqealar rivojining markazida turadi. Bundan tashqari, 1870-yildagi urush va germanlarning bosib olishi boshqa bir muhim mavzu bo`lib, adib undan “Do`ndiq”, “Fifi xonim”, “Ikki do`st”, “Milon ota”, “Jinni” asarlarida foydalanadi. Asarlariga insonparvarlik ruhini singdirishda, asosan, taqdir qurboni bo`lgan (“Hayot”, “Mitti Rok”, “Mis Are” asarlarida, xo`rlangan (“Do`ndiq”,

“Fifi xonim”, “Telye uyi”da) ayollar hamda oila va farzandlar (“Pyer va Jan”, “Dalalarda”, “Bola”, “Oila”) obrazlari muhim o`rin tutadi.

Mopassan asarlarida ruhiy tushkunlik, uning ortidan muqarrar keladigan ruhiyat tanazzuli va nihoyat, o`lim tushunchalari keng talqin etiladi.

Bu bevosita yozuvchining o`z ruhiy holati va kasalligi bilan izohlansa, ajab emas. Biroq Mopassan XIX asr fransuz hayotining turfa manzaralarini shunday aniq va tiniq tasvirlaydiki, mazkur jihat uni dunyoning buyuk realist adiblari qatorida sanashga asos beradi. Darhaqiqat, Gi de Mopassan ijodi hamon qalblarni to`lqinlantirib kelayotgan bezavol ijoddir.

2.2 Yozuvchining psixologik holatlarni aks ettirishda qo`llagan poetik vositalari (mubolag`a, sifatlash, qarshilantirish)

Hayot atalmish ummon qa`rida yashayotgan inson umr bo`yi go`zallikka intilib, undan estetik zavq olib yashaydi. Barcha yaratishlar ichida faqat insongagina fikrlash va o`ylagan narsalarini o`z nutqida bayon qilish imkoniyati berilgan. Inson yaralgandan buyon go`zallikning shaydosi bo`lgan, go`zallik har bir narsada, xususan, har bir san`atda o`ziga xos tarzda namoyon bo`ladi. Jumladan, so`z san`ati bilan dunyoga kelgan badiiy nafosat ham ming yillar davomida o`zgarmasdan, qalblarni doim ohanrabodek o`ziga tortib kelmoqda. Qariyb ming yillik tarixga ega adabiyotimizda badiiyat masalasi doimo e`tiborda bo`lgan. Qaysidir ijodkor haqida so`z borganda, birinchi o`rinda, uning nimani qanday tasvirlaganiga diqqatimizni qaratamiz, chunki adabiy asarlarda she`riy san`atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san`atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. Biror bir badiiy asarga yoki bo`lmasa, biror shoir ijodiga baho beradigan bo`lsak, ijodkor ifodalayotgan badiiy timsollar bilan birgalikda asarda qo`llanilgan she`riy san`atlarning nihoyatda jozibali ekanligi diqqatimizni tortadi, negaki ayni shu omillar asarning mazmunini ochishga xizmat qiladi. Adabiyotda she`riy san`atlardan foydalanish shoir badiiy salohiyatini ko`z –ko`z qilish, uning xilma xil san`atlaridan

mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lamini, yuksak ijtimoiy – axloqiy g'oyalarni jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan. Shuningdek, yaratilgan lirik she'rlardagi badiiy tasvir vositalari har bir kishiga orom beradi, ular insonlarga yoqimli kayfiyat, butun qiyinchiliklarni mahv etishga qodirdek kuch –qudrat bag'ishlaydi. Haqiqatdan ham tan olib aytishimiz kerakki, adabiyot insonni ezgulikka chorlaydi asl ma'naviyatimiz qanaqa bo'lganligidan bizni xabardor etadi. Ma'naviyat tushunchasini chuqur anglagan insongina o'z ortidan qolgan ma'naviyatga tashna insonlarni yetaklab boradi. Umr atalmish hayotimiz to'xtamasdan o'tib bormoqda, kun sayin inson bir kashfiyotga guvoh bo'lmoqda, bunday ishlarga o'zimiz qodir bo'lishimiz uchun biz ilm – ma'rifatga, adabiyotning boyishiga hissa qo'shgan ajdodlar merosini chuqur o'rganishimiz, bilim darajamizni yanada oshirishimiz kerak.

Ming yillar davomida shakllanib, san'at nomini olgan badiiylik vositalari faqatgina she'r bezagi emas, balki shoir niyatini o'quvchiga yetkazuvchi vosita, muallifning rangin tuyg'ular olami haqida tasavvur beruvchi manba yoki shoir ko'nglini kitobxon didi va zavqi bilan bog'lovchi rishta ham sanaladi. Ana shu ma'noda ushbu faslda she'riy san'atlar adibning psixologik holatlarni akslantirish vositalari sifatida namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin. Gi de Mopassan ijodida mubolag'a, sifatlash, qarshilantirish singari badiiy san'atlar salmoqli o'rin egallagan. Shuningdek, uning insonning psixik holatini adabiyot bilan bog'langan holda tasvirlash mahoratiga guvoh bo'lamiz. Masalan: U baland bo'yli, oriqdan kelgan, soqolli, to'g'rirog'i, butun yuzini hayron qoldirar darajada soqolsimon mo'ylar qoplab olgan ayol edi. Xuddi qandaydir aqldan ozgan kishi ayol kiyimidagi bu soldat kampirning yuzlariga ataylab yovvoyi jangal butalarini qadab chiqqanday tasavvur uyg'otardi. Bunday mo'ylar uning burnining ustida ham, ostida ham, atrofida ham, yanoqlari-yu iyaklarida ham betartib o'sib yotardi. Qoshlari ertaklardagidek qalin va uzun, biroq mutloq oqarib ketgan va yanglishib shu yerga qo'ndirilgan ho'rpaygan mo'ylovga o'xshab ketardi . “Sadoqat qurboni” hikoyasidan olingan ushbu parchada adib mubolag'a san'atidan foydalangan. Mubolag'a – (ar. “lof urish, bo'rttirish”) tasvirlanayotgan narsa, shaxs va voqea-hodisaning muayyan jihatlarini bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlash usuli. Sharq klassik

shariyatida mubolag`a san`atiga she`r ziynati sifatida qarab, “Ahsanahu akzabahu” (eng yaxshi she`r- eng yolg`on she`rdir) degan naqlga amal qilganlar. Mubolag`a quyidagi turlarga bo`linadi: tablig`, ig`roq, g`uluvv.

U sog` oyog`i bilan qadam tashlaganida, uning suyakdor qomati xuddi ulkan to`lqin ustiga ko`tarilayotgan yelkanli kemani eslatar, navbatdagi qadamini tashlaganida xuddi jarlikka qulab tushayotgandek ko`rinardi. (“Sadoqat qurboni” hikoyasidan).

U shu so`zlarni aytib cho`ntagidan terisi shilingan odam qo`lini chiqardi. Qo`l nihoyatda qo`rqinchli edi: qop-qora qurib qolgan barmoqlari uzun, mayishib ketganga o`xshardi. Favqulodda baquvvat mushaklarning yuqori va quyi qismida shilinmay qolgan, pergamentga o`xshab ketadigan teri parchalari taram-taram, barmoqlarining uchidan sarg`imtir o`tkir tirnoqlar turtib chiqib turardi. (“Murdaning qo`li” hikoyasidan);

Keyin cherkov qo`ng`iroqxonasiga tuxum qo`ygan tovuq haqida gapirib, hozirgacha bu tovuq u yerga qanday qilib chiqqanligining siri ochilmaganligini, Jan-Jan Pilas yomg`irda ho`l bo`lib qolgan ishtonini quritish uchun dorga osib qo`yganida, bir yo`lovchi uni o`marib ketganini va uning ko`ppagi o`g`rini qishloqdan o`n legacha quvib borib, ishtonini qaytarib olib kelganliklarini so`zlardi;

Tasavvur qiling,- hikoya qila boshladi do`stim, - yaqinda viloyatga dong`i ketgan bir qari jodugarning qo`qir-so`qirlarini sotishdi. Jodugar har haftaning shanbasida supurgisiga minib, jinlar bazmiga otlar, jodugarlik bilan shug`ullanar ekan: sigirlarga kinna solganida jonivorlarning suti ko`m-ko`k ko`karib, dumlari xuddi avliyo Antoniyning nadiminikiday tikkasiga buralib ketarkan. O`sha qari alvasti mana shu ko`lga juda mehr qo`ygan ekan (“Murdaning qo`li” hikoyasidan).

Sifatlash – (epitet) narsa, voqea-hodisa, tushuncha va kishilarning belgi-xususiyatlarini aniqlovchi, izohlovchi, tavsiflovchi so`zni qo`llashdir. Sifatlash gapni, iborani shunchaki bezash vositasi emas, balki u mazmun bilan aloqador bo`lib, nutqning mantiqiy, psixologik, lingvistik, adabiy va boshqa jihatlarida namoyon bo`ladi. Sifatlashlar tizimida muayyan adabiy davrning, yo`nalishning, yozuvchining uslubi o`z aksini topadi. Masalan: Taqqillatgan do`stimning xizmatkori ekan, yarim

yalang`och, rang-ro`yi dokaday, jag`i-jag`iga tegmaydi, a`zoyi badani qaltiraydi. (“Murdaning qo`li” hikoyasidan);

Go`dak qalbimni hayajonga soladigan uning hikoyalaridan u ham taqdir qisib qo`ygan ko`plab ayollar singari sahiy va oliyjanob qalbli ekanligini his qilardim (“Sadoqat qurboni” hikoyasidan);

Bir-biriga qovushmay, gala-gala bo`lib ketayotgan odamlar bilan bir ish boshlashdan ojiz qolgan, gangigan general ikki ad`yutanti bilan hammadan keyinda piyoda borardi, g`oliblikka odatlangan buyuk xalqning afsonaviy qahramonligiga qaramay, batamom tor-mor qilinishidan va uning boshiga kelgan bu dahshatli halokatdan uning o`zi ham esankirab qolgandi (“Do`ndiq” hikoyasidan).

Qarshilantirish – (antiteza) badiiy asarda voqea yoki tushunchalarni bir-biriga qarshilantirish orqali bir-biriga zid tushunchalarni yaqqol ifodalash va ularga qiyosiy xarakteristika berish. Misol uchun:

Endi bular qo`shin emas, tumtaroq lashkar (“Do`ndiq” hikoyasidan);

Otboqarning qo`lidagi fonarchasi bir qorong`u eshikdan lip etib ko`rinsa, ikkinchi qorong`u eshikka kirib yo`qolar edi (“Do`ndiq” hikoyasidan);

Axir bu botirlik emas, telbalik bo`ladi-ku (“Do`ndiq” hikoyasidan);

Xulosa

Kelajak avlod haqida qayg'urish sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, milliy qadriyatlarni, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod vatanda yashashi mumkin. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin xalqimizning o'z adabiyoti, madaniyati, san'ati va ma'naviyati tarixiga yangicha nazar bilan qarab, uni chin ma'noda avaylab – asrab, o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi. Endilikda ma'naviy boyliklarimizni o'zimiz yangidan tanib, idrok etibgina qolmay, xorijiy mamlakatlar adabiyotlaridagi tendensiyalarni ham kuzatib, ularni tahlil qilishga bilimimiz yetarli.

Malakaviy bitiruv ishidagi tahlil-u izlanishlar va mavzuga oid qator ilmiy adabiyotlardagi fikrlarga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

O'zbek adabiyotshunosligida Mopassan ijodiy merosi, uning asarlari tarjimasi haqida bir qancha ishlar yuzaga keldi, mamlakatimizda o'ziga xos mopassanshunoslik yo'nalishi shakllandi. Mopassan asarlarida ruhiy tushkunlik, uning ortidan muqarrar keladigan ruhiyat tanazzuli va nihoyat, o'lim tushunchalari keng talqin etiladi. Bu holat esa bevosita yozuvchining o'z ruhiy holati va kasalligi bilan izohlansa, ajab emas. Biroq Mopassan XIX asr fransuz hayotining turfa manzaralarini shunday aniq va tiniq tasvirlaydiki, mazkur jihat uni dunyoning buyuk realist adiblari qatorida sanashga asos beradi. Darhaqiqat, Gi de Mopassan ijodi qalblarni to'lqinlantiradigan bezavol ijoddir.

Biz o'qib – o'rganishimiz davomida shunga amin bo'ldikki, Mopassanning ko'pchilik novellalari bosqinchilik urushlarni fosh etishga bag'ishlangan. Ularda nemis ofitserlarining vaxshiyliklari ko'rsatilgan, oddiy fransuzlarning vatanparvarlik his-tuyg'ulari va kurashlari yorqin obrazlarda ochilgan. Mopassan hikoyalarida yolg'on tasvirlardan chekinadi. Uning novellarida ma'naviy qashshshoq munofiq kishilar obrazining butun bir silsilasi yaratiladi. Yozuvchi har bir hikoyasida real voqeani, hayotiy muammoni tasvirlash mahorati bilan boshqa yozuvchilardan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. -Тошкент: «Маънавият», 2008.
5. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи. – Тошкент, 2016 йил, 15 декабр. – № 247.
6. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети мутахассислари билан суҳбатидан. – “Халқ сўзи” газетаси. – 2017 йил 23 декабр.
7. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.

II. Ilmiy risola, darslik va o'quv qo'llanmalar

8. Boynazarov Fayzulla. Jahon adabiyoti. -Toshkent: Musiqa, 2006.
9. Sh. Normatova. Jahon adabiyoti. -T.: Cho'lpon, 2008.
10. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. -T.: O'zbekiston, 1997.
11. Qayumov Ortiq. Chet el adabiyoti tarixi. -T. : O'qituvchi, 1979.
12. Ermatov B. Gi de Mopassan va o'zbek adabiyoti, 1991.
13. Jahon adabiyoti durdonalari: Gi de Mopassan. Hikoyalar, 2017.
14. Alimuhamedov N. Antik adabiyot tarixi. -T.: O'qituvchi, 1975.
15. Mahmudov M. Hayrat va tafakkur. -Toshkent. G'.G'ulom, 1990.
16. Jahon adabiyoti javohirlari: Gi de Mopassan. “Oy yog'dusi”. -T. : Fan, 2007.
17. Хожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. - 193 б.
18. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 560 б.

III. Ilmiy maqolalar

19. Asadov Mahmadiyor. Qobiliyat- bu cheksiz bardosh. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2013– 8.
20. Bekmurod va Bahodir Yo`ldoshev. Gi de Mopassan ijodiy merosi O`zbekistonda. Maqola.

IV. Internet sahifalari

21. <https://uz.m.wikipedia.org>
22. <https://ziyouz.com>
23. <https://saviya.uz>
24. <https://kh-davron.uz>
25. <https://tafakkur.net>

Mundarija

Ishning umumiy tavsifi.....	
I BOB. Mopassan – mohir hikoyanavis.....	
1.1 Mopassan ijodining o`rganilishi xususida.....	
1.2 Mopassan hikoyalarida realizm va romantizm.....	
II BOB. Mopassan hikoyalarida ruhiy holatlarning talqini va tasviri.....	

2.1 Mopassan hikoyalarida ruhiy tahlil ko`rinishlari.....	
2.2 Yozuvchining psixologik holatlarni aks ettirishda qo`llagan poetik vositalari (mubolag`a, sifatlash, qarshilantirish).....	
Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	